

VATAN HIMOIYACHILARI, BAYRAM MUBORAK!

POSTDA



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2026-yil 15-yanvar payshanba № 3 (4749)

НА ПОСТЫ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

**Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!
Qadrlı vatandoshlar!**

Avvalo, siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda o'z hayotini Vatan himoyasidek g'oyat sharaflı va mas'uliyatli ishga bag'ishlagan, harbiy qasamyodiga sodiq qolib, mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan ona yurt posbonlariga yana bir bor yuksak hurmat va ehtirom bildiramiz.

Ayni vaqtda Vatan oldidagi yigitlik burchini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan

qahramon o'g'lonlarimizning xotirasiga chuqur hurmat bajo keltiramiz.

Bugungi kunda xalqimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritmoqda. Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy o'zgarishlarda shavkatli Qurolli Kuchlarimizning, sizlarning ham munosib hissangiz bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Biz sizlarni buyuk ajdodlarimiz an'analari shonli davomchilari deb bilamiz va sizlardek Vataniga fidoyi, dushmanga shafqatsiz, jangovar saflarda doimo hushyor va kurashga shay bo'lgan azm-u shijoat sohiblari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, el-yurtimizga shunday dovyurak, botir va bahodir far-

zandlarni tarbiyalab bergan ota-onalarga, harbiy xizmat davomida barcha quvonch va tashvishlarni ular bilan baham ko'rib kelayotgan oila a'zolariga o'zining samimiy minnatdorigimni izhor etaman.

Qadrlı do'stlar!

Keyingi yillarda «O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida ortga qaytmas islohotlarimizning mustahkam kafolatlaridan biriga aylanib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning harbiy qudratini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshiryapmiz. Jumladan, boshqaruv va ta'minot tizimi takomillashtirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida modernizatsiya qilinmoqda, qo'shinlarimizning jangovar saflari yangicha ta'lim va tarbiya olgan malakali ofitser va serjantlar bilan to'ldirilmoqda.

(Davomi 2-betda.)

BUYUK AJDODLAR VORISIMAN

Men Toshkent viloyati Olmaliq shahrida tug'ilib, voyaga yetganman. Dadam Ohangaron tumani IIB profilaktika inspektori, mayor unvonida xizmat qilayotgan Xayrulla Ubaydullayevning o'ziga yarashgan xizmat libosi, organ xodimlariga xos intizom va mas'uliyatli xarakteri hamda ushbu sohaga bo'lgan qiziqishim tufayli maktabning 4-sinfini tamomlaganimdan so'ng IIV Ixtisoslashgan maktab-internatiga o'qishga kirdim.

(Davomi 24-betda.)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida

Mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlash, professional milliy armiyani shakllantirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirishdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharaflari va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko'rsatgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo'shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

«Jasorat» medali bilan



Kim Aleksandra Vladimirovna – Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi batalyoni guruh katta mutaxassisi



M u h a m m a d o v Jasurjon Rasul o'g'li (marhum) – Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo'l-patrul xizmati inspektori



Muminov Vaxobjon Abduvaliyevich (marhum) – Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo'l-patrul xizmati katta inspektori

«Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan



Badalboyev Feruz Yusufovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi boshqarma boshlig'i



Aliyev Jamshid Valijonovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari harbiy qism qorovul boshlig'i

«Shuhrat» medali bilan



J a k s i m u r a t o v Mirat Maratovich – Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar ichki ishlar bo'limi bo'linma boshlig'i



Sultonov Asliddin Muxtarovich – Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi, harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyati izchil yuksaltirib borilmoqda. Qurolli Kuchlarimiz zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda.

Yoshlar o'rtasida harbiy xizmatga qiziqishni oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalq bilan armiya o'rtasidagi mustahkam birlik va jipslikni yanada kuchaytirishga qaratilgan samarali ishlarimiz qat'iy davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning siyosiy va harbiy xaritasida qanday shiddatli o'zgarishlar yuz berayotganini barchamiz ko'rib, anglab turibmiz.

Turli mintaqalarda geosiyosiy vaziyat tobora murakkablashib, ziddiyat va qonli to'qnashuvlar kuchaymoqda. Zamonaviy texnologiyalar, yangi avlod qurol-yarog'lari paydo bo'lmoqda, jangovar harakatlari olib borishning strategiya va taktikasi yanada takomillashmoqda.

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, biz kelgusida jang va boshqaruv usullarini zamon talablari asosida yangilaymiz, yuqori malakali harbiy kadrlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratamiz.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat'iyati, o'ziga bo'lgan ishonchi, mardona fazilatlarini hal qiladi.

Milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika, jumladan,

sun'iy intellekt asosida robotlashtirilgan majmualar bilan ta'minlash, qo'shinlarni boshqarish hamda qaror qabul qilish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishga doir ishlarning samarasini oshirib, ularning turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni kuchaytiramiz. Bu borada davlat va fuqarolik institutlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtirok etishiga alohida ahamiyat qaratamiz.

Har bir harbiy xizmatchi xalq bilan armiya – bir tan-u bir jon ekanini, uning ortida 38 millionlik xalq tog'dek tayanch bo'lib turganini doimo his etishi, shundan cheksiz kuch, ruh va madad olishi kerak.

G'ayrat-shijoatda tengsiz bo'lgan harbiylarimiz yovlar oldida hech qachon bosh egmagan qo'rqmas va o'tyurak ajdodlarimizning o'lmas merosini o'rganib, ulardan ibrat va saboq olib, Vatan oldidagi muqaddas burchini bundan buyon ham sharaf bilan ado etadilar, deb ishonaman.

Aziz Vatan himoyachilari!

Mana shu hayajonli damlarda har biringizni bugungi bayram bilan yana bir bor chin dildan qutlab, sizlarga va oila a'zolaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi olijanob faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Jonajon Vatanimiz himoyasi yo'lida hech qachon tolmaning, yutuq va zafar sizlarga doimo yor bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni

UNVON MUBORAK, AZIZ HAMKASBLAR!

Vatanimiz tinchlik-osoyishtaligini saqlash, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan quyidagi xodimlarga navbatdagi «polkovnik» maxsus va harbiy unvonlari berildi:

podpolkovnik Abduraxmonov Ibroximjon Otajonovich;
podpolkovnik Shermatov Sherzod Rustamovich;
podpolkovnik Xojamuratov Muxammetali Allambergenovich;
podpolkovnik Berdiyev Fazliddin Shobidinovich;
podpolkovnik Mamatkulov Tal'at Abdumannobovich;
podpolkovnik Yakubov Uchkun Maxamarasulovich;
podpolkovnik Muratov Akmal Boxodirovich;
podpolkovnik Ergashxodjayev Sarvar Saidanvarovich;
podpolkovnik Dadaxanov Shavkat Shakirovich;
podpolkovnik Miliyev Shuxrat Akmalovich;
podpolkovnik Sharipov Alisher Muxitdinovich.



Репортаж

ВАТАН, СЕНИ ҲИМОЯ ҚИЛМОҚ – ШАРАФДИР, ШОНДИР!

14 январь – Ватан ҳимоячилари куни шунчаки сана эмас, балки юрт ишқини қалбига жо айлаган, эл тинчлигини ўз ҳаётининг мазмуни деб билган жасур посбонларнинг шарафланишидир. Зеро, киндик қони тўкилган тупроқ ҳар бир инсон учун имон қадар азиз, номус қадар муқаддасдир.

Ички ишлар вазирлигида байрам муносабати билан ўтказилган тадбирда Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Азиз Ташпулатов бугунги тинч ва осойишта кунларнинг қадри, сафда турган мардларнинг матонатига бўлган чексиз ҳурматни, ором нималигини билмай, эл осойишталигини ўз ҳаловатидан устун қўйган, борлигини муқаддас бурчга бахшида этган заҳматкаш ва фидойи ходимларнинг хизматини алоҳида таъкидлаб ўтди. Давлатимиз раҳбарининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган Мурожаатномасида белгилаб берилган устувор вазифалар тадбирнинг бош ғоясига айланганини, айтиб ўтди. Хавфсизлик ва муҳофаа салоҳиятини мутлақо янги босқичга олиб чиқиш, тизимни халқнинг ҳақиқий суянчи ва мададкорига айлантириш борасидаги ислохотлар изчил

давом эттирилиши қатъий белгиланганига тўхталди.

Тез ўзгараётган ҳозирги даврда хавфсизлик тушунчаси фақатгина чегараларни ҳимоя қилиш билан чекланиб қолмай, балки кибермакон ва ахборот оламида ҳам ҳушёрликни талаб этмоқда. Қуrolли Кучлар Олий Бош

масалалари бўйича кенгайтирилган йиғилишида Юртбошимиз тинчлик ва хотиржамлик энг қиммат бойликка айланаётганини бир дақиқа ҳам унутмаслик лозимлигини таъкидлади. Бу бойликни асраб-авайлаш учун эса ҳар бир соҳа ва тармоқ хавф-хатарларга олдиндан жавоб қайтариш бўйича «проактив иш режими»га ўтиши шартлигини кўрсатиб ўтди.

Тадбир давомида генерал-лейтенант А. Ташпулатов давлатимиз раҳбарининг фармони билан тақдирланган фидойи хо-



ҳалок бўлган марҳум ходимларнинг оила аъзолари саҳнага таклиф этилганда содир бўлди.

Президентимизнинг бундай эътирофи бизни янада фидойиликка, Ватан осто-насини кўз қорачиғидек асрашга ундайди.

Тадбир давомида кўп йиллар садоқат билан хизмат қилган бир гуруҳ ходимлар навбатдаги махсус унвонлар ва кўкрак нишонлари, фахрий ёрлиқлар ҳамда эсдалик қўл соатлари билан тақдирланди.

Шунингдек, тадбирда соҳада кўп йиллар давомида фидокорона хизмат қилган, раҳбарлик лавозимларида тизим ривожига бекиёс ҳисса қўшган уч нафар ходимни пенсияга кузатиш маросими ҳам бўлиб ўтди. Вазир, генерал-лейтенант Азиз Ташпулатов ҳамда вазир маслаҳатчиси, генерал-полковник Зокиржон Алматов томонидан ушбу фахрийларга зарбоф тўн ва дўппи кийдирилди. Устоз-шогирдлик анъаналари яққол намоён бўлган ушбу лаҳзаларда соҳа фахрийларига узоқ йиллик самарали хизматлари учун миннатдорлик билдирилиб, келгуси ҳаёт йўлларида сиҳат-саломатлик ва омонлик тиланди. Бу каби эътибор ва эҳтиром пенсияга чиқаётган ходимлар учун алоҳида ҳурмат, ёш ходимлар учун эса садоқат билан хизмат қилиш борасида катта ибрат мактаби бўлди.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.
Абу КЕНЖАЕВ
олган суратлар.



Қўмондони Шавкат Мирзиёев раислигида ўтказилган Хавфсизлик кенгашининг мамлакатимиз ҳарбий хавфсизлиги ва му-

дофаасини мустаҳкамлаш

димларга юксак мукофотларни топширди. Залдаги барчанинг қалбини титратган, қароқларни ёшга тўлдирган дақиқалар хизмат бурчини бажариш чоғида

Вазир марҳум ходимларнинг яқинларига миннатдорлик билдираркан, ҳар бир қаҳрамон оиласи давлатимиз ва вазирлик раҳбариятининг доимий эътиборида бўлишини алоҳида таъкидлади. – Бу мукофотда ҳар бир сафдошимизнинг уйқусиз тунлари, оиласидан узоқда ўтган машаққатли кунлари ва Ватан деб урган юраги бор, – дейди Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани ИИБ ХПБ профилактика катта инспектори, «Шуҳрат» медали соҳиби, подполковник Аслиддин Султонов. – Юртбошимиз ва халқимиз ишончи ҳар қандай мукофотдан кўра залворлироқ, ҳар қандай унвондан кўра шарафлироқдир.



TAYINLANDI



Полковник
Ўроқов Азамат
Шодиёвич – ИИБ
Жамоат хавфсизлиги
департаменти
бошлигининг
ўринбосари –
Пробация
бошқармаси
бошлиғи лавозимида.

Buxoro tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant Azizbek Po'latov mahallada odamlar dardini eshitib, muammolarini joyida hal qilishga erishmoqda.

Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini yaqinda boshlagan lavhamiz qahramoniga malakalali mutaxassis, profilaktika katta inspektori, mayor Aminjon Avezov sohaning sirasrorlarini o'rgatmoqda.

– Mana, ikki yildan oshdiki, Azizbek bilan hamjihatlikda ishlab kelyapmiz, – deydi «Navro'z» mahalla fuqarolar yig'ini raisi Oybek Hakimov. – O'tgan vaqt ichida aholining ishonchini qozonib ulgurgani bois hududimizda jinoyat va huquqbuzarlik holatlari keskin kamayishiga erishildi, voyaga yetmaganlar hamda ayollar o'rtasida sodir bo'ladigan salbiy ho-

latlar kuzatilmadi. Ajrim yoqasidagi oilalarni yarashtirib qo'ymoqdamiz.

Leytenant A. Po'latov xizmat ko'rsatayotgan hududda faollar bilan hamkorlikdagi profilaktik tadbirlar samarasi o'laroq, 2025-yil davomida bitta o'g'rilik jinoyati sodir etilib, u ham «issiq izida» ochilgan.

O'tgan yili 60 taga yaqin yuzni va avtomashina raqamini tanib oluvchi kameralar o'rnatildi. Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ham qator sa'y-harakatlar amalga oshirilyapti.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Profilaktika inspektori faoliyatidan

IBRAT OLSA ARZIYDI



O'g'lonlarin unutmas Vatan!

ISMI JISMIGA MOS EDI...

«Jasur», «jasoratli» so'zlari «xavf-xatardan, qiyinchiliklardan qo'rmaydigan, dovyurak» degan ma'nolarni anglatadi. Jasurjon Muhammadov oilada to'rt o'g'ilning sarvari sifatida ukalariga sardor, yetakchi bo'lib, ismi jismiga mosligini butun hayot yo'li mobaynida isbotladi. U bolaligidan ichki ishlar organi xodimi bo'lishni orzu qilardi.

Ushbu tizimdagi ilk faoliyatini qo'riqlash xizmatida boshladi. Keyinchalik Navoiy viloyati IIB YHXB Yo'l-patrul xizmati inspektori lavozimiga tayinlandi. Mustahkam intizom, sergaklik va halollik uning kundalik shioriga aylandi. Safdor Jasurjon Muhammadov xizmati davomida fuqarolar xavfsizligini ta'minlashni o'zining muqaddas burchi deb bildi. Qoidabuzarlarga nisbatan murosasiz bo'ldi. Qisqa faoliyati davomida jamoada o'z o'rnini topdi, obro'-e'tibor qozondi.

2025-yilning yanvar oyida Navoiy shahridagi Islom Karimov ko'chasida xizmat olib borayotgan vaqtda yo'l qoidalarini qo'pol ravishda buzib, boz ustiga davlat raqamisiz harakatlaniy kelgan «KIA Sonet» avtomashinasini ko'rib qoldi. Unga to'xtash ishorasini qildi. Ammo mashinani boshqarayotgan shaxs xodimning qonuniy talabiga bo'ysunmay, uni urib yubordi. Og'ir tan jarohati olgan Jasurjon Muhammadov shifoxonaga olib ketilayotgan paytda vafot etdi.

Tekshiruvlar jarayonida avtomashinani haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan, 2008-yilda tug'ilgan 10-sinf o'quvchisi boshqargani, u yo'l-transport hodisasini sodir etgandan so'ng jabrlanuvchiga yordam ko'rsatmasdan, voqea joyidan yashirinishga uringani aniqlandi.

Xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan Jasurjon Muhammadovning fojiali o'limi nafaqat oila a'zolari, balki barcha kasbdoshlari, uni yaqindan



bilgan insonlarni larzaga soldi. Bugun u oramizda yo'q, ammo yorqin xotirasi qablarda yashamoqda. Uning nomi — jasorat timsoli, hayoti esa burchga sadoqat namunasi bo'lib qoldi.

Vatan himoyachilari kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan farmonga muvofiq, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhi Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular qatori marhum Jasurjon Muhammadov ham «Jasorat» medali bilan mukofotlandi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Xalqimizda «Bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish – muvaffaqiyat garovi» degan ibora bor. Poytaxtimizning eng gavjum hududlaridan biri bo'lgan Yunusobod tumanida jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlashda safdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan ikki nafar fidoyi xodimning xizmati bunga yorqin misol.

IKKI XODIM – BIR BUTUN

Tuman IIOFMB JTSB saf bo'linmalari PPX otryadi inspektorlari, safdorlar Jahongir Muxamedraximov hamda Umar Jabborov xizmatga munosabati va mas'uliyati bilan shaxsiy tarkib orasida alohida ajralib turadi. Bu ikki xodimni «bir butun» deb atash mumkin. Chunki ular o'zaro hamkorlikda xizmat olib borishadi.

Xususan, ularning sa'y-harakatlari natijasida o'tgan yil davomida 4 ta jinoyat «issiq izida» fosh etildi. Jinoyat sodir etib, jazo muqarrarligidan qochib yurgan shaxslarni ushlash katta mahorat va hushyorlik talab etadi. Safdorlar J. Muxamedraximov va Umar Jabborov o'zlariga birlashtirilgan hududda sergaklikni qo'ldan bermay, qidiruvdagi shaxslarning qonun oldida javob berishlarini ta'minlashmoqda. Jumladan,

o'tgan yil davomida 9 nafar qidiruvdagi shaxs aniqlandi va tuman IIOFMBga topshirildi.

Ayniqsa, «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlarida ularning faolligi yaqqol ko'zga tashlandi. Tadbir davomida 3 ta holatda giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishini aniqlashda o'zlarining munosib hissalarini qo'shishdi.

Faoliyatida o'zaro tandem hosil qilgan ushbu xodimlarning og'ir jinoyatlarni fosh etish va huquqbuzarliklarga chek qo'yish borasidagi kechiktirib bo'lmay harakatlari o'z qasamyodiga sodiqligini yaqqol tasdiqlaydi. Zero, el tinchligi va yurt farovonligi mana shunday minglab sergak posbonlar mehnati bilan chambarchas bog'liq.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Ўзбекнинг биринчи қаҳрамони

МИЛЛАТНИНГ МУНОСИБ ЎҒЛОНИ

Ҳар қандай эр йигит ўз Ватанини муносиб ҳимоя қилиш-ни орзу қилади. Бу орзу айрим инсонлар учун фақат тил-да қолмай, амал ва тақдирга айланади. Ана шундай ин-сонлардан бири Андижон вилояти Қўрғонтепа туманига қарашли Дардоқ қишлоғида 1917 йилда туғилган Қўчқор Турдиев эди. У Иккинчи жаҳон уруши майдонларида фа-шизмга қарши жанг қилиб, Ватан олдидаги бурчини шараф билан адо этган, ўзбек халқи тарихида ўчмас из қолдирган қаҳрамонлардан бири ҳисобланади.

Қизил Армия сафида фронтга жўнаб кетади. Қўчқор Турдиев 1941 йилнинг кузида Украина ҳу-дудида кечган қонли жангларда иштирок этади. Харьков вилояти атрофидаги шиддатли тўқнашувлар давомида Турдиев душманнинг пулемёт ўрнатилган объектини йўқ қилади. Жанг вақтида ёқиб юборил-ган немис қуролидан фойдаланиб, бир неча фашист аскарини ўлдир-ди. Кейин эса граната билан дзотни портлатиб, икки немис ҳарбийсини асирга олади. Бу ҳаракати бутун бўлимининг олға силжишига йўл очиб беради.

Ана шу жасорати учун Қўчқор Турдиев 1942 йил 27 март куни «Со-

вет Иттифоқи Қаҳрамони» унвони билан тақдирланади. Шу тариқа, у Иккинчи жаҳон урушидаги биринчи ўзбек қаҳрамони сифатида элга танилди. Унинг номи ўша кунлардан бошлаб, фақат фронт сафларида эмас, балки бутун халқ хотирасида ҳам қаҳрамон сифатида муҳрланиб қолди.

1989 йилда Қўчқор Турдиев би-лан учрашиб, суҳбатлашишга му-ваффақ бўлганман. Ўшанда ундан: «Фашистларни қандай қилиб асир олгансиз?» – деб сўраган эдим. У эса шундай ҳазиломуз жавоб берганди:

Мен жанг майдонида эдим. Ҳар томонда бомбалар портляпти.



Оқопдан бошимни чиқариб қара-сам, қаршимдан душманлар кел-япти. Мен эса қуролимни йўқотиб қўйган эдим. Аммо яқинимда бир белкурак турган экан. Уни қўлимга олиб «Хендихох» деб бақирдим. Улар қўлларини кўтаришди. Кейин қуролларини ташлашни айтдим. Шу тариқа уларни олдимга солиб кетдим.

Бу шунчаки ҳазил эди, аслида қаҳрамонимиз бошидан кечирган оғир дамларни, юракка из қолдир-ган дардларни, азобли хотиралар бераётган изтиробни шу тариқа енгар эди.

Урушдан кейин у тинч ҳаётга қайтиб, меҳнат билан шуғулланди, одамлар орасида ҳурмат-эътиборга сазовор бўлди. Узоқ йиллар даво-мида Жалақудуқ туманидаги Ойим қишлоғида яшаб, жамоа хўжали-гида бригадир сифатида фаолият олиб борди. Шу тариқа, мамлакат иқтисодиётининг ривожига ҳисса қўшиб, ўзининг қаҳрамонлик йўлини шов-шувсиз, оддийлик билан босиб ўтди.

Қўчқор Турдиев 1992 йил 4 август куни вафот этди. Аммо унинг номи, жасорати ва фидойилиги халқ хоти-расида абадий яшайди. У Ватанини ҳимоя қилишнинг қандай бўлишини нафақат сўз, балки бутун ҳаёти билан исботлаб кетган инсон эди.

Саминжон ҲУСАНЗОДА,
ўз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

Bilarmidingiz?

Toshkent teleminorasi balandligi bo'yicha jahonda 12-o'rinda turadi. Mazkur inshoot 1978–1985-yillar davomida qurilgan.



Dastlab teleminora Iroq bosh vaziri Abdulkarim Qosim topshirig'iga ko'ra sovet muhandislari tomonidan loyihalashtirilgan, bi-roq 1963-yilda Iroqda yuz ber-gan davlat to'ntarishi natijasida uning buyurtmasi bajarilmay qoladi. Y. Semashko va N. Terziyev-Sa-rukov tayyorlagan mazkur loyiha Toshkentga yuboriladi. Shu asnoda yetti yil davomida teleminora qurib bitkazilgan va 1985-yil 15-yanvar kuni foydalanishga topshirilgan.

Jazoni ijro etish tizimida

QALB SHIFOKORI

Hayotda yo'ldan adashib, qil-gan xatolari uchun ozodlikdan mahrum etilgan insonlar uchun ruhiy qo'llab-quvvatlash suv bilan havodek zarur. Chunki u ruhan sinovdan o'tadi. Qalin devorlar, temir panjaralar ortida qolgan odam uchun eng og'ir jazo — o'z o'y-fikrlari bilan yolg'iz qolish. Ana shu holatda inson qalbiga yo'l topa oladigan, uni tinglay biladigan mutaxassis — psixolog xizmatiga ehtiyoj seziladi.

Shunday qalb shifokorlaridan biri IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi psixologik ta'minlash guruhi bosh psixologi, mayor Aziz Saxatovdir.

Uning faoliyati davomida eng asosiy tamoyili — insonga ishonch bilan munosabatda bo'lish. Chunki o'ziga ishonch bildirilgan mahkum-da hayotda o'z o'rnini topishiga umid uyg'onadi. Psixolog uchun eng katta yutuq ham aynan shu — inson qalbida umid uchqunini alangalatishdir.

Lavhamiz qahramonining odat-dagi ish kuni oddiy suhbatdan boshlanib, inson taqdiriga daxldor qarorlar bilan yakun topadi. Chunki



jazoni ijro etish muassasalarida har bir so'z, har bir munosabat mahkum ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Aziz Saxatov uchun esa har bir qabul — alohida mas'uliyat. U hech kimga tayyor maslahat bermaydi, har bir kishini diqqat bilan tinglaydi. Suhbatdoshining dardini his etadi, sukut ortidagi iztirobni anglashga harakat qiladi.

Aziz Saxatov o'z faoliyatida ku-zatuv, intervyu, test, sotsiometriya, psixologik treninglar, shuningdek, zamonaviy terapiya usullaridan foy-dalanadi. Ayniqsa, surat chizdirish terapiyasi, neyrografika va assotsi-ativ kartochkalar insonning ichki dunyosiga yo'l ochishda samarali vositaga aylangan. Bu usullar orqali

kishi o'z ruhiyatidagi muammolar-ni anglay boshlaydi. Anglash esa o'zgarish tomon ilk qadamdir.

— Inson o'zini anglamas ekan, uni hech kim o'zgartirmaydi, — deydi hamsuhbatim. — Biz psixologlar yo'l ko'rsatamiz, ammo bu yo'ldan yu-rish insonning o'ziga bog'liq.

Qalin devorlar va temir panjaralar ortidagi insonning ham qalbi bor, orzulari bor. U ham o'tmishda yo'l qo'ygan xatosi, sodir etgan qilmishi uchun afsus-nadomat chekadi. Ana shu qalblarga yo'l topa olishdek nozik va mas'uliyatli vazifa Aziz Saxatov singari mohir psixologlar chekiga tushgan.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.



2026-yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

FAROVONLIK BIRDAMLIKDAN BOSHLANADI

Mahalla ko'chalari toza, hovlilar obod bo'lsa, bu — maskanda muhit yaxshiligi va qo'shnilar ahilligidan darak. Tozalik esa kishi kayfiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uch yildan buyon «yashil» toifada turgan Kattaqo'rg'on tumani «Kattaming» mahallasi ana shunday obod va xushmanzara manzillardan biri sanaladi. Unda 4550 nafar aholi 855 ta xonadonda tinch-totuv istiqomat qilishadi.

Mahalla faollari, nuroniy-lar, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlashga mas'ul xodimlar o'zaro hamjihatlikda muammoli oilalar bilan ishlash, yoshlarni band etish, ularni sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb qilishni asosiy vazifalari deb bilgan holda uddalashmoqda.

— O'tgan yili bizga yangi bino qurib berildi. Ishlashimiz uchun barcha sharoitlar bor. Bunday imkoniyatlar bizga yanada kuch bag'ishlab, aholimiz hayotdan mamnun yashashi uchun yettilik birgalikda ishlayapmiz, — deydi «Kattaming» MFY raisi Aktam Xudoyberdiyev.

Hududda profilaktika inspektori mayor Marat Mustafoev kun-u tun sergak. G'ayrat-shijoatli, intiluvchan va izlanuvchan xodimning matonati, irodasi va qat'iyati tufayli mahallada jinoyatchilik qayd etilmagan. Do'kon, kafe va ko'chalarda o'rnatilgan kuzatuv kameralarini muntazam kuzatib boradi. Begona shaxslar, voyaga yetmaganlar ko'chada nazoratsiz yurmasligini, nizoli holatlar bo'lmasligini nazorat qilib, bu borada profilaktik-targ'ibot tadbirlarini olib boradi.

Mahalla yettiligi keksalar maslahatiga tayanib bemor va yakka yolg'iz yashovchi fuqarolar, nogironligi bor oilalar holidan xabar oladi, ularning muammolarini hal etishga ko'maklashadi. Yaqinda saxiy kishilar ko'magida ijtimoiy himoyaga muhtoj, ayoli ham, o'zi ham nogironligi bo'lgan Muyassar Xudoyberdiyev oilasiga uy-joy qurib berilishini tashkil etishdi. Ular bir xonadonda 4 ta oila yashar edi, — deydi mahalla faoli Shokir Shavqiyev.

Ha, o'zaro hamkorlik va birdamlik, mehr-oqibat va qo'shnihilik rishtalari mustahkam, sharqona qadriyatlar ustuvor bo'lgan mahallada har qanday muammoga yechim topiladi. Shu bois, mahalladagi ahillik, totuvlik va mehr-oqibatga ko'pchilik havas qilishadi.

Umida MAMADALIYEVA, o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Ular bir xonadonda 4 ta oila yashar edi, — deydi mahalla faoli Shokir Shavqiyev.

Ular bir xonadonda 4 ta oila yashar edi, — deydi mahalla faoli Shokir Shavqiyev.

Tergovni bilimdonlar olib boradi

SOHA KUTILMAGAN «ALGORITM»LARGA TO'LA — deydi mayor Klara Narmanova

Har qanday jinoyatga huquqiy baho berilishida tergov jarayoni muhim ahamiyatga ega. Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi Jinoyatlarni tergov qilish bo'linmasi katta tergovchisi, mayor Klara Narmanova buni yaxshi biladi. Shu bois jabrlanuvchiga ham, ayblanuvchiga ham ishni adolat tarozisiga qo'yib, haqiqatni ro'yobga chiqarish maqsadida muomala qiladi.



— Tergovchiga huquqiy bilimdon bo'lishning o'zi yetarli emas, — deydi lavhamiz qahramoni. — Chunki tergov jarayonlari kutilmagan «algoritm»larga to'la. Ko'pincha qonun doirasidan tashqariga chiqqanlar o'zi to'qigan yolg'onlari bilan tergovchini chalg'itishga urinishadi. Qolaversa, xizmat jarayonida turli kasb egalari bilan muloqot qilganda, ushbu soha haqida ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lish, qarshingizdagi shaxs bilan tezda tillashish, o'z o'rnida vaziyatga oydinlik kiritishda ham qo'l keladi. Umuman olganda, tergovchi zamon bilan barobar odimlab, mulohaza, mushohada qilishi, doim tafakkurini

yangi bilimlar bilan boyitib borishi kerak.

Mayor Klara Narmanova ilk xizmat faoliyatini Navoiy viloyati Uchquduq tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasida boshlagan. Unga nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishda ustoz podpolkovnik Ulug'bek Yoriyev o'zining maslahat, yo'l-yo'riqlari bilan yaqindan yordam bergan.

Xalqimiz tilida «Qiz bola — palaxmon toshi» degan naql bejiz yaramagan. Klaraning taqdir yo'llari xuddi o'zi singari huquq-tartibot sohasida faoliyat yurituvchi Sardorbek Xolmo'minov bilan tutashgach, faoliyatini Toshkent shahrida davom ettirdi. Shunday kunlarning birida IIV Akademiyasida ta'lim bergan ustozini uchratib qoldi.

— Klara Narmanova nihoyatda ilimga chanqoq va o'ziga nisbatan talabchan kursantlardan biri edi, — deydi Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori Abror Otajonov. — Shu bois unga xizmat bilan barobar ilmiy izlanishlar olib borishini maslahat berdim. U o'tgan yili IIV Akademiyasining mustaqil tadqiqotchisi sifatida «Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish xususiyatlari» mavzusidagi dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilib, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) bo'ldi. Ilmiy rahbar sifatida shunday iqtidorli shogirdim borligidan faxrlanaman.

Darvoqe, xizmatda ilg'or, ilmda zukko xodima oila oshyonida to'rt nafar farzandining mehrbon onasi hamdir. U xizmatdan qaytgach E'zozaning a'lo bahalaridan, Mohinurning yod olgan she'r-u masallaridan, Hasanjon va Zuhra-xonlarning beg'ubor kulgularidan ko'ngli yorishadi. Beixtiyor ko'z oldidan bolaligida akasi iste'fodagi serjant To'lqin Narmanovga havas qilganlari o'tadi. Qiziqishlari ortidan ichki ishlar organlaridek sharaflil sohani tanlaganidan xursand bo'ladil. Ayni damda ukasi leytenant Oxunjon Narmanov ham shu sohada faoliyat boshlaganidan dili ravshan tortadi.

Hayot va xizmat yo'llarida unga suyanch bo'lib kelayotgan turmush o'rtog'i, yaqinlari, ustozlari, hamkasblari borligidan yuragida shukronalik hissini tuyadi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA, o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KASBIY MADANIYATI

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda ikki holatga ko'zim tushdi. Birinchisi, huzuriga kelgan fuqaroning murojaatini ijobiy hal qilib, o'z vazifalarini a'lo darajada bajarib, huquqiy maslahatlarini ayamay, xushmuomalalik, tabassum bilan kuzatib qo'ygan ichki ishlar organlari xodimi, ikkinchisi, haydovchi bilan bab-baravar tortishayotgan, qo'pol munosabatda bo'layotgan YPX inspektori...

Darhaqiqat, soha xodimlarining jamoatchilik orasida mavqeyini yanada oshirish, xalqimizning mazkur kasbga bo'lgan hurmat va e'tiborini kuchaytirish, fuqarolar bilan bo'ladigan munosabatlarda ichki ishlar organlari xodimlari o'zlarini yuksak madaniyatli va ma'rifatli inson sifatida namoyon etishlarini ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xalq xizmatchisi sifatida xodim fuqarolar bilan bo'ladigan muloqotda odob-axloq qoidalaridan chetga chiqishi mumkin emas. Har bir xodim bilimli, kasbiy malakasi yuksak, madaniyatli, tashkilotchi, jonkuyar, halol, el-yurtiga va qasamyodiga sodiq bo'lishi kerak.

Ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar, korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslari bilan munosabatlari huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda xulq-atvor, odob-axloq mezonlari Ichki ishlar organ-

lari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksida belgilab qo'yilgan.

Unda muomala madaniyatiga rioya etish ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanishi, ichki ishlar organiga yoki aniq bir xodimga murojaat qilgan har qanday shaxs zudlik bilan qabul qilinishi va e'tibor bilan tinglanishi shartligi, barcha darajadagi rahbarlar o'z xodimlarini qo'pollik va loqaydlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, o'zaro va fuqarolar bilan qo'pol muomalada bo'lish holatlariga qat'iy munosabat bildirishlari hamda xulq-atvor va muomala madaniyati bilan shaxsiy namuna ko'rsatishi zarurligi belgilangan.

Unutmaslik kerakki, osoniyatlik posboni ham, avvalo, xalqdan chiqqan oddiy inson. Shuning uchun o'zini fuqarolardan ustun qo'yishi, ularga nisbatan bepisand

munosabatda bo'lishi yoki qo'pollik qilishi, yolg'on gapirishi yoxud boshqa asossiz bahonalar bilan ularni chalg'itishi mumkin emas.

Shu bilan birga, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar va muomala (haqorat qilishga) yo'l qo'yish, ularga nisbatan qonunga xilof ravishda jismoniy kuch ishlatish yoki shunday kuch ishlatish bilan qo'rqitish, jismoniy shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqishdan bo'yin tovlash yoki ko'rib chiqishni asossiz rad etish hamda xizmat zarurati bilan ichki ishlar organlariga chaqirilgan (olib kelingan) shaxslarni asossiz kuttirib qo'yish man etiladi.

Afsuski, guruch kurmasiz bo'lmaganidek, ayrim xodimlarimiz yurish-turishi, kiyinishi, o'zini tutishi hamda salbiy axloqi bilan xizmat intizomini qo'pol ravishda buzayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Eng muhimi, xodimlarning asosiy vazifasi yot illatlarning yo'lini to'sish fuqarolarning huquq va

Men Yangi O'zbekistonning ichki ishlar organlari xodimlari – Vatanimizning asl o'g'lonlari sifatida zamonaviy bilimlarni egallagan, ma'naviy va ma'rifiy dunyosi boy, har qanday xavf-xatarga qarshi matonat bilan kurashishga tayyor xalqimizning chin ma'nodagi himoyachilari ekaningizga qat'iy ishonaman.

Shavkat MIRZIYOYEV



erkinliklarini, qadr-qimmatini, or-nomusini, davlat, va jamiyat manfaatlarini himoya qilish ekanligini aslo unutmasligi lozim.

Fuqarolar ichki ishlar organlari xodimidan fidoyilik, ishchanlik, aniqlik, jonkuyarlik, xushmuomalalik kabi fazilatlarini kutishadi. Tashabbuskor xodim ish bo'yicha keluvchilarga xotirjamlik, bosiqlik, vazminlik bilan aniq maslahatlar beradi.

Murojaat qilib kelgan fuqarolar bilan muomalada xodim dimog'dorlik, manmanlik, qo'pollik, gerdayish, kinoyali, dag'al tarzda tanbeh berish, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi so'zlar ishlatish, asosanmagan ayblar qo'yish, tahdid soluvchi hamda fuqarolarning qadr-qimmatini va shaxsini tahqirlovchi boshqa xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi lozim.

Agarda huquqbuzar, xodim tomonidan berilgan tanbehga dag'allik bilan javob qaytarsa, uni tinchlantirishi, o'z harakatlarining noqonuniyligini tushuntirish paytida albatta tegishli qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish zarurligini jur'at bilan uqtirishi lozim.

Biror kishining hujjatini tekshirib ko'rish zaruriyati tug'ilganda, xodim uning oldiga kelib, qo'lni bosh kiyimiga yaqinlashtirib salomlashishi, vaqtini olganligi uchun uzr so'rashi va muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim. Asabi buzilgan, qo'rqan, shoshilib qolgan odamlarga nisbatan

ko'proq iltifotli bo'lish darakor, chunki ta'sirchan, asabi kishilar, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmaganlar uchun hujjat tekshirish holatining o'zi ham qattiq ta'sirlanishga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, bugun biz globallashuv jarayonlari shiddat bilan tezlashayotgan, axborot texnologiyalari rivojlanayotgan asrda umrguzaronlik qilmoqdamiz. Shuni inobatga olgan holda, ichki ishlar organlari xodimlari obro'sini poymol qilishga qaratilgan har xil ig'vigorona harakatlarning oldini olishda ham kasbiy madaniyat muhim ahamiyat kasb etishi begumondir.

Mamlakatimizning har bir fuqarosi ichki ishlar organlari xodimi timsolida o'zining hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini har qanday tajovuzlardan muhofaza qilishga va og'ir damda yordam berishga tayyor bo'lgan himoyachisini ko'rishi hamda o'zining xavfsizligi ta'minlanganligini his qilishi zarurligini hisobga olib, yuksak madaniyatli, muomalali bo'lish muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.



Qoraqalpoq
tilidagi
matn.



Rus tilidagi
matn.



► **Celebrating our defenders!****HIGH RECOGNITION FOR A NEW ERA**

The President of the Republic of Uzbekistan and Supreme Commander-in-Chief of the Armed Forces, Shavkat Mirziyoyev, has extended his festive greetings on the occasion of the 34th anniversary of the Armed Forces and January 14 – Defenders of the Motherland Day. In his message, the Head of State emphasized the importance of enhancing the nation's defense capabilities while prioritizing the rule of law and the maintenance of public order.

A central pillar of the current reforms is the concept of «New

Uzbekistan – New internal affairs bodies». This vision aims to bring the system closer to the people by implementing digitalization and fundamentally improving professional training under the principle that «the system must serve the interests of the people». The new identity of internal affairs bodies is reflected not only in advanced technology and equipment but also in the high spiritual values and professional culture of every officer.

On the eve of the holiday, in accordance with a Presidential Decree, a group of law enforcement officers

who demonstrated exceptional dedication in preserving peace, combating crime, and fulfilling their duties were honored with prestigious state awards. The inclusion of devoted internal affairs personnel among the awardees serves as high recognition of the arduous work carried out within the sector.

Such recognition places a great responsibility on those in the field while further strengthening their loyalty and pride in the Motherland. After all, development and prosperity can only flourish in a land where peace and stability prevail.

► **Sports and service****WITH PRIDE AND HONOR**

Senior sergeant Islomjon Marufov, a senior specialist of the Special operations unit of the Fergana regional internal affairs bureau, is a dedicated professional who has committed his life to the defense of the Motherland and public tranquility. Born in the Kushtepa district, Islomjon devoted his youth to muay thai, achieving top honors in Asian and international championships and earning a distinguished collection of medals. His childhood dream of serving in law enforcement became a reality in 2018; since then, he has carried out his duties with courage, fulfilling the trust of his mentors and parents. As a father of two, Islomjon begins each day with his parents' blessings, taking immense pride in serving his country. His years of athletic excellence and professional mastery serve as a vital foundation, enabling him to execute the most complex assignments with precision and skill.

► **Safe neighborhood – peaceful society****YOUR INSPECTOR IS NOW ONLINE**

In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 5, 2026, a new system for ensuring neighborhood safety and controlling crime is being introduced. Under this document, the «Mening Inspektorim» («My Inspector») mobile app will be launched to facilitate rapid communication between residents and prevention officers. Through this app, citizens can communicate online, send photo and video reports, and evaluate the performance of their local officers. Furthermore, to reduce domestic disputes,

the «E-nizoli oila» (E-dispute family) module will be operational by May 1, 2026, and integrated with the judicial authorities. Within this framework, factors contributing to crime among youth and women will be analyzed using a scientific approach based on the principle of «scientific conclusion – recommendation – result». These measures are designed to reconcile families in conflict, reduce poverty, and improve the situation in «red» (high-crime) zones through a localized, neighborhood-based («mahallabay») approach.

► **Secret of success****THE STAGE IS AN EXPRESSION OF THE SOUL**

Davron Karimov is a skilled actor at the Uzbek National Academic Drama theater and a recipient of the «Devotee of culture and art» badge. Throughout his career, he has earned the audience's acclaim by creating diverse characters across both theater and cinema. In his view, the acting profession demands more than just talent; it requires living truthfully on stage, enriching every role with dedication-much like the art of baking bread and committing

to a path of continuous self-improvement.

In his interpretations of both antagonistic and protagonist roles, Davron Karimov strives to reveal the profound essence of each character. Furthermore, the actor addresses the challenges regarding the misinterpretation of artistic works on social media, emphasizing that a modern-day actor must possess not only professional skill but also a deep sense of social responsibility.

A significant part of the actor's creative journey is dedicated to historical figures. While portraying personages such as Mironshokh and Mahmudkhon, he seeks to connect with the spiritual legacy of his ancestors. For him, the stage is a space for live communication with the audience. Davron Karimov considers it his primary creative duty to bring enlightenment and goodness to society by unveiling the most delicate facets of the human soul in every performance.

► **Guardians of justice****A MASTER OF HIS CRAFT**

Captain Abdurazzoq Khudoyberdiyev's passion for internal affairs began in his school years, eventually leading him to the Academy of the Ministry of internal affairs in 2017. His academic success was bolstered by his proficiency in two foreign languages and a relentless dedication to the field of forensic science. Since beginning his career in 2020 at the Regional forensic center, he has mastered the art of criminal investigation under the mentorship of seasoned experts. Today, captain Khudoyberdiyev is recognized for his exceptional ability to solve crimes «on the warm trail». A notable example of his expertise was the swift resolution of a 150 million soum theft from a vehicle, where his precise recovery of fingerprint evidence led to the suspect's capture within a single day. Beyond his operational duties, his professional excellence was further solidified last September when he secured second place in a national forensic competition held in the Fergana region. Combining modern scientific research with practical experience, captain Khudoyberdiyev continues to play a vital role in supporting law enforcement agencies to ensure justice and public safety.



Badiha

«KIMKI UL ELGA XIZMAT ETAR, DAVLAT ULUG'»

Vatanni himoya qilish tushunchasi xalqimiz tafakkurida azaldan chuqur ma'noga ega. U faqat harbiy tayyorgarlik yoki xizmat burchi bilan cheklanib qolmaydi. Vatanni asrash insonning vijdoni, mas'uliyati va elga sadoqati bilan o'lchanadi. Shu bois bu tuyg'u bolalikdan, oila bag'ridan boshlab shakllanadi.

Men o'n nafar aka-ukalarim orasida ulg'ayganman. Uyimiz doim harakatda, intizomda, mehnat va tarbiya uyg'unligida edi. Har birining o'ziga yarasha qiziqishi bor edi. Kimdir futbol orqali jamoaviylikni o'rganar, kimdir basketbol bilan chaqqonlikka intilar, kimdir shaxmatda sabr va fikr teranligini charxlar, yana kimdir og'ir atletika bilan irodasini chiniqtirardi. Bu mashg'ulotlar biz uchun shunchaki vaqt o'tkazish emas, balki hayotga tayyorgarlik maktabi edi.

Otam rahmatli bizga doim: **«Kuch yig'ing, o'zingizni chiniqtiring. Lekin bu kuch o'z manfaatingiz uchun emas, el tinchligi uchun xizmat qilsin. Kimning yuragida Vatan ishqi bo'lsa, uning g'ururi baland bo'ladi. O'n o'g'lim quloqch yoy-sa, shamol ham yo'lini topolmay qoladi. Yurtini asraydigan o'g'lonlar ko'paysin»**, – deb uqtirardilar. Bu so'zlar biz uchun shior emas, hayot mezon edi. Vatan himoyasi avvalo insonning o'zini tarbiyalashidan boshlanadi.

Bu g'oya xalqimiz ma'naviyatida asrlar davomida shakllangan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari shunday deganlar:

**Kimki ul elga xizmat etar, davlat ulug',
Kimki xalqqa g'amxo'r bo'lur, muhabbat ulug'.**

Bu misralar Vatan himoyasining eng teran falsafasini ifoda etadi. Buyuk alloma hikmatida davlatning ulug'ligi hudud yoki qudrat bilan emas, xalqqa qilingan xizmat bilan o'lchanadi. Haqiqiy himoya

– zo'rlikda emas, g'amxo'rlikda. Haqiqiy qudrat – kuch ishlatishda emas, muhabbat va adolatda. Xalqqa xizmat qilish – Vatanga xizmat qilish demakdir.

Tariximizda bu fikrlar amal bilan isbotlangan. Buyuk sarkarda Amir Temur davlatni qurol bilangina emas, intizom, qonun va adolat asosida mustahkamlagan. Uning «Kuch – adolatda», degan g'oyasi Vatan himoyasining ma'naviy poydevori edi. Bobomiz Jaloliddin Manguberdi esa mo'g'ul bosqin-

dilar. Ular uchun Vatanni asrash – xalq ongini asrash, milliy o'zlikni saqlash demak edi. Chunki ma'rifatli xalq o'z yurtini sotmaydi, uning kelajagi uchun javobgarlikni his qiladi.

Bugun ana shu tarixiy va ma'naviy meros zamonaviy hayotimizda ham yo'lchiroq vazifasini o'tamoqda. Vatan himoyasi faqat chegaralarda emas, balki jamiyat osoyishtaligini saqlashda, qonun ustuvorligini ta'minlashda, insonlar xavfsizligi va huquqla-



chilariga qarshi mardonavor kurashdi. Shuning uchun uning nomi xalq xotirasida matonat timsoli sifatida saqlanib qoldi.

Jadid bobolarimiz esa Vatan himoyasining yana bir muhim yo'lini – ma'rifat yo'lini ko'rsatdilar. Ular qurol bilan emas, qalam bilan, maktab bilan, ilm orqali millatni uyg'otish mumkinligini angla-

rini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda harbiylar, ichki ishlar organlari xodimlari, huquq-tartibot posbonlari xalq ishonchini yelkalarida ko'tarib xizmat qilmoqdalar. Ular Vatan, Vatan deya xayqirmasa ham, ammo yuksak mas'uliyat bilan o'z burchini ado etmoqdalar. Bir insonning xotirjam uyquasi,



Munawvara USMONOVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi,
«Saodat» jurnali bosh
muharriri

bir oilaning osoyishtaligi ortida ana shu fidoyilarning beqiyos mehnati turadi. Bu mehnat ko'zga ko'rinmas bo'lishi mumkin, ammo uning qadri juda baland.

Vatan himoyachisi deganda biz nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'nan pok, vijdonli, adolatli insonni tasavvur qilamiz. Chunki Vatanni asrash faqat kuch bilan emas, qalb pokligi, halollik va xalqqa bo'lgan sadoqat bilan amalga oshadi. Ana shu fazilatlar jamiyatda ishonchni, tinchlikni va barqarorlikni mustahkamlaydi.

Vatan himoyasi – kechaning merosi, bugunning mas'uliyati va ertaning kafolatidir. Bu muqaddas omonatni asrash har bir avlodning sharaflari burchidir.

Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yurt tinchligi yo'lida xizmat qilayotgan barcha insonlarga sog'lik, kuch-g'ayrat va omad tilaymiz.

Yurtimiz osmoni musaffo, elimiz tinch bo'lsin!

KECHA VA BUGUN



IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi 7534-harbiy qism.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.instagram.com/postda.uz

Kinologiya

SHAROITGA MUNOSIB NATIJALAR

Mamlakatimiz ichki ishlar organlarida jinoyatchilikka qarshi kurashishda xizmat itlaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Jumladan, IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7533-sonli harbiy qismda Xizmatchi itlar bo'linmasi xodimlari itlardan foydalanish, ularni tayyorlash va o'rgatish borasida tizimli ishlarni amalga oshirib kelishmoqda.

Harbiy qismning jamoat xavfsizligini ta'minlash, qo'riqlash va maxsus xizmat vazifalarini bajarishda muhim o'rin tutadigan mazkur bo'linmasida 42 nafar malakali kinolog xodim 49 ta xizmat iti bilan doimiy ravishda mashg'ulotlar o'tkazib kelmoqda. Mavjud volerlar esa belgilangan sanitariya va zootexnika talablariga to'la javob beradi. Bu, albatta, xizmat itlarining sog'lom saqlanishi va xizmatga shayligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan yili Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan tashkil etilgan «Dog biatlon» musobaqasida harbiy qism sharafigini himoya qilgan kinolog, kichik serjant Sardor Saman-



darov o'ziga birlashtirilgan «Reks» laqabli xizmat iti bilan yuqori darajadagi mahorati, chaqqonligi va tayyorgarligini namoyon etib, birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

– Vazirlik miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda kinologlarimiz, jumladan, kichik serjant Asadbek Shermuhamedov va serjant Bekzod Yusupov ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, hamkasblariga

o'rnak bo'lib kelmoqda, – deydi bo'linma boshlig'i, katta leytenant G'ayrat Xoliqov.

Harbiy qism kinologiya xizmatining moddiy-texnik bazasi tobora mustahkamlanayotgani, kinologlarning kasbiy mahorati oshirib borilayotgani yanada yuqori natijalarni qo'lga kiritishga zamin bo'lmoqda.

Azamat XOLMATOV.

Qashqadaryo viloyati.

Islohotlar samarasi

Transport infratuzilmasi:
YANGI YO'LLAR – YANGI IMKONIYATLAR

Bugungi globalashuv davrida transport infratuzilmasi har bir mamlakat taraqqiyotining muhim drayveriga aylanib bormoqda. Yo'llar, ko'priklar, temiryo'llar va logistika tarmoqlari jamiyat hayotini harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Yangi yo'llar qurilishi nafaqat transport muammolarini hal qiladi, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va hududlar rivojiga xizmat qiladi.

TARAQQIYOTNING
BOSHLANISH NUQTASI

Yo'l infratuzilmasini yaxshilash va transport infratuzilmasini rivojlantirish savdoning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Yangi avtomobil yo'llari temiryo'l tarmoqlari mahsulotlarni tez va sifatli yetkazib berishga imkon yaratadi. Natijada korxonalar faoliyati kengayadi, bozorlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi. Fermer va dehqonlar yetishtirgan mahsulotini qisqa vaqt ichida shaharlarga olib chiqib, o'z daromadini oshirmoqda. Bu esa nafaqat alohida oilalar, balki butun hudud iqtisodiyoti rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilgari bir necha soat vaqt talab qilgan yo'llar bugun ancha qisqardi. Bu esa aholining kundalik

hayotida katta qulaylik yaratmoqda. Talabalar o'qish joyiga, ishchilar ishonaga, bemorlar esa tibbiyot muassasalariga o'z vaqtida yetib borish imkoniga ega bo'lmoqda. Masofalarning qisqarishi ijtimoiy tenglikni ham ta'minlaydi. Chekka hududlarda yashovchi aholi ham shahar markazidagi xizmatlardan bimalol foydalana oladi. Natijada hududlar o'rtasidagi farq asta-sekin kamayib, jamiyatda barqarorlik mustahkamlanadi.

XAVFSIZ YO'L – OSOYISHTA
HAYOT KAFOLATI

Bugungi kunda yo'l qurilishida xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy transport infratuzilmasi piyodalar yo'laklari,

velo yo'llar, svetoforlar, yo'l belgilari va yoritish tizimlari bilan uyg'un holda barpo etilmoqda. Bu esa yo'l-transport hodisalarining kamayishiga xizmat qilmoqda.

Xavfsiz yo'llar – faqat texnik masala emas, balki inson hayotiga bo'lgan hurmat ifodasidir. Har bir qurilgan yo'l, har bir o'rnatilgan belgi fuqarolarning tinch va osoyishta harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan.

TURIZM VA SARMOYA
MAGNITI

Rivojlangan transport infratuzilmasisiz turizmni tasavvur etib bo'lmaydi. Sifatli va qulay yo'llar sayyohlarning tarixiy obidalar, ziyorat maskanlari va tabiiy go'shalarni bimalol ziyorat qilishiga imkon beradi. Bu esa hududning turistik salohiyatini oshirib, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, transport infratuzilmasi investorlar uchun ham muhim mezon hisoblanadi.

Yo'llari ravon, logistika tizimi rivojlangan hududlarga sarmoya oqimi ko'payadi. Natijada yangi korxonalar, yangi ish o'rinlari va

barqaror iqtisodiy muhit shakllanadi. Yangi yo'llar qurilishi hududlarning tashqi qiyofasini ham o'zgartiradi. Infratuzilma rivojlangan joyda yangi uy-joylar, savdo markazlari, ijtimoiy obyektlar barpo etiladi. Bu esa aholining yashash sharoitini yaxshilab, farovonlik darajasini oshiradi. Bundan tashqari, transport qulayligi ichki migratsiyani tartibga solib, aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Odamlar ish va yashash joyini tanlashda yo'l sharoitiga katta ahamiyat beradi.

Xulosa qilib aytganda, transport infratuzilmasini rivojlantirish faqat bugungi kun ehtiyoji emas, balki kelajak avlodlar uchun yaratilayotgan mustahkam poydevordir. Yangi yo'llar hududlarni bog'laydi, imkoniyatlarni kengaytiradi va jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydi. Shunday ekan, «yangi yo'llar – yangi imkoniyatlar» degan fikr bugun hayotiy haqiqat sifatida o'z tasdig'ini topmoqda.

Valisher ABIROV,
TDSHU dotsenti.
Mubina BAXTIYOROVA,
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti
1-bosqich talabasi.

Nuqtayi nazar

QOG'OZNING

HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Qog'oz – donishmandlar fikrlarini
dunyoga tarqatadigan qanotlar.

Alisher Navoiy

Kundalik hayotimizni qog'ozsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har kuni qog'oz bilan ishlaymiz: yozamiz, chizamiz, kitob o'qiyamiz, nusxa ko'chiramiz, devor qog'ozini yopishtiramiz, har birimizda hujjatlar, pul va boshqalar bor.

Qog'ozning ixtiro qilinishi inson sivilizatsiyasi rivojida eng muhim voqealardan biri bo'lgan. Qadimda odamlar tovushlar orqali muloqot qilardi, lekin insoniyat ongi o'sib borgan sari, og'zaki ma'lumotlarni yozib olish zarurati paydo bo'ldi.

Qog'ozning o'tmishdoshlari ko'p edi. Tosh va loy, yog'och va suyak, charm va qayin, mum va metall, papirus va pergament muayyan tarixiy davrlarda odamlarga yozuv materiallari sifatida xizmat qilgan. Ammo ularning har biri yozuv uchun qulay emas edi. Ba'zilari og'ir, ba'zilari mo'rt, boshqalarini esa tayyorlash qimmatga tushardi.

Bugungi ko'rinishdagi qog'oz birdaniga paydo bo'lmagan. Masalan, papirus qog'ozini tayyorlash uchun asosiy material sifatida balandligi 5 metr bo'lgan qamish poyasi tanlab olinardi. Papirusni ishlab chiqarish murakkab jarayon edi. Ular juda qimmat bo'lgan va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni

talab qilgan. Papirus bilan parallel ravishda, pergament rivojlana boshladi. U ancha mustahkam bo'lib, uning ikkala tomoniga ham yozish mumkin edi. Ammo pergament papirusdan ham qimmatroq edi. Qog'oz tarixining boshlanishi milodiy 105-yil bilan bog'liq, vatani esa Xitoy hisoblanadi.

Qog'oz Xitoy qishloq xo'jaligi vaziri Say Lun tomonidan ixtiro qilingan. U qog'ozni tut daraxti po'stlog'ini tolaga ajratib, suv bilan aralashtirib, yoyib, quritish yo'li bilan olgan. Bu yo'l bilan u zamonaviy qog'ozga o'xshash materialning yupqa varag'ini yaratishga erishdi. Keyinchalik Say Lun qog'oz tayyorlash texnikasini takomillashtirib, qog'oz qorishmasiga latta va baliq ovlash to'riining parchalarini qo'shdi. Bu usul Xitoy bo'ylab tarqalgan va uzoq vaqtgacha sir saqlangan. Ko'p asrlar davomida xitoyliklar qog'oz tayyorlash usullarini bilgan yagona xalq hisoblangan, shuning uchun ular bu sirni ehtiyotkorlik bilan saqlashgan va uni oshkor qilganlarni o'lim jazosiga hukm qilishgan. Ammo vaqt o'tishi bilan qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi Yevropaga

yetib bordi va tez rivojlana boshladi.

Qog'oz tayyorlash uslubi mamlakatimiz tarixida ham o'zining ma'lum bosqichlarini bosib o'tgan. Shu davrdan XVIII asrgacha Samarqand Markaziy Osiyoning ipak qog'ozini ishlab chiqarish markaziga aylangan.

Samarqand qog'ozini silliq va rangli bo'lgani uchun juda talabgir bo'lgan, uning asosiy xususiyati chidamliligi edi. Samarqand qog'oziga yozilgan hujjatlarning aksariyati yaxshi holatda saqlangan va bugungi kunda dunyoning turli muzeylarida mavjud. Aynan shu qog'ozga xattotlar nusxalar ko'chirishgan, rassomlar esa miniatyuralar chizishgan. Kitoblar tayyorlash uchun esa aynan Samarqand qog'ozidan foydalanishni afzal ko'rishgan.

Qog'oz ma'lumotlarni uzoq muddatga arxivlash uchun qulay manba hisoblanadi. Hujjatlar, kitoblar, jurnallar, tarixiy yozuvlar o'nlab yillar, hatto asrlar davomida ham tegishli sharoitlarga rioya etilgan holda saqlanib kelinadi. Aksincha, raqamli manbalar kutilmagan shikastlanishi mumkin, bu esa uzoq muddatga axborotdan foydalanish imkonini cheklashga olib keladi.

Bugun qog'ozdan hayotimizning deyarli barcha sohalarida foydalaniladi. San'at va ijod yo'nalishida qog'oz hali ham muhim o'rin tutadi. Rasm chizish, asar yozish, xattotlik va ijod mahsulining boshqa shakllari ko'pincha qog'oz manbalari yordamida amalga oshiriladi. U gigiyena, san'at, qurilish va hatto pul ishlab chiqarishda ham qo'llaniladi. Jamiyatni raqamlashtirish va axborotlashtirish davom etayotganiga qaramay, qog'oz kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qog'ozdan o'qish materialni elektron qurilmalarga nisbatan yaxshiroq o'zlashtirish va eslab qolishga yordam beradi.

Shu bilan birga, qog'oz ishlab chiqarish jarayonining salbiy tomonlari ham bor. Bugungi kunda qog'oz fabrikalari katta daryolar bo'yida joylashgan, chunki uni tayyorlashga ko'p suv talab etiladi. Misol uchun, A4 formatdagi qog'ozning bir varag'ini ishlab chiqarishga

13 litrgacha suv sarf qilinadi. Bir tonna qog'oz ishlab chiqarish uchun

24 dona katta daraxt kerak. Buning uchun har yili

1,5 milliarddan ortiq daraxt kesib tashlanadi. Bu esa, o'z navbatida, ekologik muammolarning ke- lib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanish madaniyati joriy etilgan. Qog'oz isrofgarchiligi sayyoramizga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Resurslardan oqilona foydalanish sayyoraviy miqyosda asta-sekinlik bilan yaqinlashib kelayotgan falokatning oldini olishga yordam beradi. Bugungi kunda ikkilamchi qog'ozdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu dolzarb zarurat. Ikkilamchi qog'oz xomashyosidan butun davlat va alohida hududlar miqyosida foydalanish o'rmon resurslarini saqlab qolish imkonini beradi. Bu esa ekologik falokatning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

G'ayratulla SHUKUROV, o'z muxbirimiz.



Ayol va jamiyat

UYG'OQ YURAKNING NURLI NUQTALARI

yoxud mas'uliyat va sharaf yonma-yan

Yaqinda to'yxonada bir yoshgina juvon yonimga kelib, quyuqqina so'rashdi. So'ng «Feruza opa, meni tanimadingiz-a, oyim ham sizga salom aytdilar, keyingi stolda o'tiribdilar», – deb qoldi. «Singlim, rostan ham sizni tanimadim», dedim shoshib qolganimgan. Shunda u: «Opa, bundan bir necha yil ilgari ajrashmoqchi bo'lganimda, oilamni saqlab qolgansiz. Onam: «Ana Feruza opang», – deya ko'rsatdilar. Sizga rahmat aytmogchiman, o'shanda to'g'ri maslahat bergan ekansiz. Hozir farzandim ikkita bo'ldi, qaynonam bilan kelishib oldim, turmushim iziga tushib ketdi», – deganida, ko'zlarimga yosh kelib, uni mahkam quchib oldim. Bundan 2–3 yil ilgari qaynonasi bilan chiqisholmay, eridan nolib ajrashmoqchiligini aytib, yetti oylik chaqalog'ini bag'riga bosib oldimga kelgan kelinchak edi. Bilasizmi, men uni shu onda esladim. Va xursand bo'ldim, chunki ko'zlari baxtiyorlikdan chaqnap turardi...

Toshkent viloyati IIBB Ikkinchi mintaqaviy hudud Angren shahar IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, podpolkovnik Feruza Matibragimova bilan suhbatlashsangiz, salkam o'ttiz yillik xizmat faoliyati bilan bog'liq qalbini nurlantirib turuvchi ana shunday hayotiy misollarni goh ko'ziga yosh olib, goh kulib so'zlab beradi.

Fidoi xodima ayni paytda Angren shahrida istiqomat qilayotgan 91280 nafar xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga mas'ul, oilalardagi muammolarni tizimli o'rganadi. O'z o'rnida ishsiz, yordamga muhtoj, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga amaliy yordam berish maqsadida mahalla faollari, mutasaddi tashkilot va idoralar bilan hamkorlik qiladi. Shu o'rinda o'tgan 2025-yilda 917 nafar tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya

orderlari rasmiylashtirilganligini ta'kidlash joiz. Shuningdek, Probatsiya guruhi nazoratida turuvchi, ichkilikka ruju qo'ygan, jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan xotin-qizlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish va ularning muammolariga yechim topish lavhamiz qahramonining kundalik vazifalarining muhim bir bo'lagiga aylanib ulgurgan.

– Ustozim Feruza opa sohaga oid huquqiy bilimlarni hayotiy misollar bilan erinmasdan tushuntiradi, – deydi leytenant Sevinch Abdug'afforova. – Mahallalardagi o'rganish, profilaktik suhbatlar jarayoniga birga olib borib, bevosita ko'rsatib tavsiyalar berib: «Yoshsan, o'rganishing, o'z ustingda ishlashing kerak», – deya ta'kidlaydilar. Men doim ustozimga munosib shogird bo'lishga, ular singari uzoq yillar tizimda samarali xizmat qilishga harakat qilaman.

Inson umri oqar suvga o'xshaydi. Uni qadrlaganlar hayotda o'rnini topadi. Feruza opa ham xizmatdagi



ezgu amallari bilan hamkasblari, rahbarlari, yaqinlari, eng muhimi aholi ishonchini oqlab kelmoqda.

Ezgu maqsadli insonlardan yaqinlari ibrat olishga harakat qilishadi. Buni qahramonimizning ukasi iste'fodagi mayor Botirali Matibragimov ham unga havas qilib, ichki ishlar organlariga xizmatga kirib, namunali faoliyat yuritib, yorug' yuz bilan pensiyaga chiqqanida, hozirda jiyanlari Jasurbek Satimov, Ravshanbek

Matibragimov ham tizimda sidqidildan xizmat qilayotgani misolida yaqqol ko'rinadi. So'zimiz so'ngida aytarimiz shuki, podpolkovnik Feruza Matibragimova mas'uliyat va sharaf yonma-yan xizmatining har soniyasini uyg'oq yuragining nurlu nuqtalariga aylantira olgan kasb fidoyilaridan.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

IIV ta'lim muassasalarida

SODIQLIK QASAMYODI

Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan IIV Malaka oshirish institutida unutilmas va tantanali voqea bo'lib o'tdi. Boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik kurslarida tahsil olayotgan 280 nafardan ziyod yosh tinglovchilar Vatanga sadoqat qasamyodini qabul qildilar. Tantana ishtirokchilari – institut rahbariyati, soha faxriylari, keng jamoatchilik vakillari hamda farzandlarining hayajonli lahzalariga guvoh bo'lish uchun kelgan ota-onalarning nigohida g'urur va ishonch porlab turardi.

Tadbir avvalida IIV Alohida namunalik-ko'rgazmali orkestri sadolari ostida Davlat bayrog'i saf maydoniga olib kirildi. So'ng yangragan Davlat madhiyasi esa har bir tinglovchi qalbida milliy g'urur va mas'uliyat hissini yanada jo'sh urdirdi.

Institut boshlig'i, polkovnik Olimjon Ahmedov tadbirni ochar ekan, bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xodimlarning xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdagi o'rni

haqida alohida to'xtalib o'tdi. Shundan so'ng tinglovchilarning mag'rur ovozi saf maydonini tutdi. Ular O'zbekiston Respublikasiga, xalqimiz va Prezidentimizga sodiq qolishga, sharaflilik burchni vijdonan bajarishga tantanali ravishda qasamyod qildilar.



– Men farzandim o'z qasamyodiga sodiq qolishiga ishonaman. Qasamyod qilgan barcha yosh xodimlarning kelajakda ulkan yutuqlarga erishishini, general bo'lib yetishishlarini tilab qolaman. Oilamizda otam, men va mana endi o'g'lim ham ichki ishlar organlari xodimi bo'ldi, – deydi podpolkovnik O. Hayitboyev.

Bayram tadbiri doirasida «Ochiq eshiklar kuni» ham tashkil etildi. Unda Bektemir tumanidagi 290, 291 va 293-sonli maktab o'quvchilari mehmon bo'lib, institutdagi shart-sharoitlar va tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

Bugun qasamyod qilgan yosh huquq-tartibot posbonlarining qadamlari shaxdam, maqsadlari esa aniq. Zero, o'z qasamyodiga sodiq qolgan xodim el-yurt osoyishtaligining mustahkam qalqonidir. Biz ularning kelgusidagi sharaflilik va mas'uliyatli xizmatlarida zafarlar tilaymiz!

Aziza BOXODIROVA,
mayor.

Qaror va vazifalar

IJTIMOYIY PROFILAKTIKA – JINOYATCHILIKKA QARSHI SAMARALI VOSITA

Mahalla – asrlar osha sayqallanib kelayotgan o'zbek xalqiga xos milliy qadriyat, milliy an'analarni o'zida aks ettirgan mehr-oqibat va birdamlik majmui. Mamlakatimizda mavjud 9 mingdan ziyod mahalla, eng avvalo, yoshlarda yurtga mehr-u muhabbat, sadoqat, daxldorlik tuyg'ularini shakllantiradigan tarbiya maskani, Vatan va xalq manfaatlarini birlashtiruvchi mustahkam ko'prikdir.

Hammamiz guvohi bo'lib turganimizdek, mamlakatimiz o'z yo'lida qat'iy maqsadlari sari ildam harakat qilmoqda. Respublikamiz miqyosida aholi xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida har bir mahalla kesimida amaliy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish birinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2026-yil 5-yanvarda imzolangan «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaror 2025-yil 3-yanvardagi «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining uzviy davomi bo'ldi.

Xususan, qarorda ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash bo'yicha manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini samarali joriy etish orqali jinoyatchilikni keskin kamaytirish masalasiga alohida urg'u qaratildi. Mazkur qaror asosida IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya boshqarmasi tomonidan hududlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, huquqbuzarliklarning barvaqt

profilaktikasini tashkil etish maqsadida bir qator vazifalar belgilab olindi.

Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, joriy yilning 1-yanvar holatiga ko'ra jami 89719 nafar shaxs probatsiya nazoratiga olingan bo'lib, shundan 31121 nafari muddatidan ilgari ozod qilinganlar, 25475 nafari axloq tuzatish ishlari, 1598 nafari shartli hukm qilish, 9219 nafari muayyan huquqdan mahrum qilish, 22215 nafari ozodlikni cheklash, 91 nafari majburiy jamoat ishlari jazosini o'tab kelmoqda.

Qarorda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish holatini tanqidiy o'rganish hamda ijtimoiy-maishiy muammolarini bartaraf etish bo'yicha manzilli choralar ko'rish vazifasi ham yuklatilgan. Bu borada Probatsiya nazoratidagi shaxsning jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan uchun uning jazosini og'ir jazo turiga almashtirishdan oldin, «Tuzatish sari 10 qadam» shiori ostida ijtimoiy moslashtirishning barcha choralari qayta ko'rib chiqish belgilab olindi.

Bundan tashqari, nazorat ostidagi shaxslarning bandligini ta'minlash maqsadida hududiy bandlikka ko'maklashish bo'limlari bilan hamkorlikda «Ishga marhamat» mehnat

yarmakalari o'tkazilib, muayyan kasb-hunarga ega bo'lmagan shaxslarni hududiy «Monomarkaz»larda (haydovchilik, qurilish, savdo-sotiq, maishiy xizmat ko'rsatish, obodonlashtirish va boshqa sohalar bo'yicha) kasbga o'qitiladi hamda egallagan mutaxasssligiga muvofiq doimiy ish bilan ta'minlanadi. Jazoni ijro etish muassasalaridan to'liq ozodlikka chiqarilgan shaxslarga tadbirkorlik, me'morchilik, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun «Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» ajratish choralari ko'riladi. Hududiy kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda nazorat ostida turgan vaqtincha ishsiz shaxslar «Ish qidirayotgan shaxs» sifatida ro'yxatga olinishi ta'minlanadi.

Probatsiya nazorati ostida turgan ijtimoiy ahvoli og'ir, yordamga muhtoj

olib borilgan amaliy ishlar, ijtimoiy va psixologik yordamlar natijasida qayta jinoyatlar soni 4 foizga kamayishiga erishildi. Qarorga ko'ra, mahallalarda sodir etilgan ijtimoiy-maishiy tUSDagi jinoyatlarning sabablari va ularni keltirib chiqargan omillarni tanqidiy muhokama qilish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida ushbu shaxslarning turmush tarzini monitoring qilib borish, respublika mahallalarida mahalliy hokimlar rahbarligida «Ijtimoiy profilaktika haftaligi»ni o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish kabi bir qator vazifalar qat'iy belgilangan. Shu bois, nazorat ostidagi shaxslarni qonunga itoat, hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish maqsadida hududiy Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar bilan hamkorlikda «Sayyor sud» tadbirlari o'tkaziladi. Sud jarayonlarida



tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan taqiq (cheklov) va majburiyatlarni vijdonan bajarib kelayotgan shaxslarni jazo o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish, jazo o'tashdan qasddan bo'yin tovlab kelayotgan shaxslarning o'talmay qolgan jazo muddatini og'irroq jazo turi bilan almashtirish choralari ko'riladi. Shuningdek, jazo o'tashdan bo'yin tovlab, yashirib yurganligi sababli qidiruv e'lon qilingan shaxslar ushlalib, tegishli tartibda jazoni ijro etish muassasalariga qaytarilishi bo'yicha mas'ullar bilan hamkorlikda ishlash mexanizmini kuchaytirish yuzasidan maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Mazkur qaror kriminogen vaziyat og'ir va murakkab mahallalarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda qayta jinoyatlar sodir etilishining qat'iy oldini olishda muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Uning ijrosini ta'minlashga IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya boshqarmasi va uning quyi tuzilmalari xodimlari ham o'z hissalarini qo'shadilar.

Azamat O'ROQOV,
polkovnik.



shaxslar «Maxsus daftar»larga ro'yxatga kiritiladi. Ularga O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi – ID-karta rasmiylashtirilishida ko'maklashiladi. Shuningdek, pensiya va nafaqa olishlari uchun hujjatlar rasmiylashtirilishida amaliy yordam beriladi. Nazoratdagi shaxslarda aniqlangan turli kasalliklar bo'yicha tibbiyot muassasalarida davolanish kursini o'tashlari uchun yo'naltirish hamda moddiy yordam olishlari uchun ko'maklashish bo'yicha ham muhim chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'tgan yil davomida probatsiya nazorati ostida turgan shaxslar bilan

Династии

КОГДА СЛУЖБА —
ЭТО СУДЬБА

Старший техник узла связи батальона обеспечения войсковой части № 7531 старший сержант Эльвира Лошак — человек, в судьбе которого тесно переплелись семейные традиции, профессионализм и искренняя преданность выбранному делу. Она — специалист информационно-коммуникационных технологий. Для нее служба стала осознанным жизненным выбором.



Эльвира — представительница военной династии. Служили и ее дедушка, и отец. Именно их пример с детства формировал уважение к форме, дисциплине и ответственности. Несмотря на это, родители поначалу были против ее желания связать свою жизнь со службой в ОВД, переживая за непростой и ответственный путь. Однако твердость характера и внутренняя убежденность взяли верх: в 2007 году Эльвира успешно прошла отбор и была принята в Караульные войска.

Начинала рядовой в должности делопроизводителя. С 2009 года Эльвира служит в войсковой части № 7531, постоянно совершенствуя свои профессиональные навыки.

Основная задача — обеспечение защиты информации. Это направление требует высокой концентрации, технической грамотности. Эльвира признается, что искренне любит свою работу, возложенные задачи старается выполнять точно и в срок, понимая, насколько важен результат для общей безопасности.

По словам нашей героини, в подразделении царит атмосфера взаимовыручки и профессионального уважения. Она с теплотой отзывается о поддержке со стороны руководства — подполковника Джураева Дильшоода, капитана Номонжонов Джавохира, капитана Ахмедова Достона. Именно такая слаженная работа и доверие позволяют эффективно выполнять поставленные задачи.

Очень значима для нее семейная опора. Со своим мужем Эльвира познакомилась на первом месте службы. Сегодня он — офицер запаса, также выходец из военной династии, который хорошо понимает специфику службы. В браке они воспитывают сына и дочь. Сын мечтает стать юристом, а дочь с восторгом примеряет мамину форму и с гордостью подражает ей. Старший сержант Э. Лошак искренне гордится своей службой. Здесь она чувствует себя нужной, понимает важность своего вклада.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.

Человек — общество — государство

ОБРЕТЕНИЕ ГРАЖДАНСТВА

В Ташкентской области состоялась церемония вручения идентификационных ID-карт лицам, принятым в гражданство Республики Узбекистан в соответствии с Указом Президента.

В ходе мероприятия 61 жителю столичной области были вручены ID-карты. Этот документ гарантирует им всеобъемлющую реализацию прав, закрепленных в Конституции.

Выступавшие подчеркнули, что подобные проявления доброй воли — яркий пример гуманизма. Они

направлены на то, чтобы каждый достойный человек чувствовал себя полноправным членом великой семьи Узбекистана.

— Для нас сегодняшний день по-настоящему стал судьбоносным. Мы долгие годы жили мечтой стать гражданами этой прекрасной страны, которую искренне считаем своей

Родиной, — говорит жительница области К. Олимова. — Выражаем глубокую признательность Президенту за доверие, за политику добра и милосердия. Мы с еще большей гордостью и энергией будем жить и созидать во имя процветания Узбекистана!

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



Республика Каракалпакстан

ВРЕМЯ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Завершив еще один год, мы вступили в новый. Естественно задаться вопросом: какие из намеченных в прошлом году планов удалось реализовать, а какие — нет.

Лично для меня прошедший год стал годом радости и удачи. Причина в том, что в рамках социальной поддержки сотрудников ОВД я приобрела жилье на основе ипотечного кредитования. Это еще раз убедило меня в том, что если человек искренне стремится к цели, он обязательно сможет ее достичь.

15 лет назад самой заветной мечтой было стать сотрудником органов внутренних дел. Когда я училась в общеобразовательной школе № 35 Кунградского района, сотрудники ОВД в форменной одежде, приходившие для участия в различных мероприятиях, производили на меня большое впечатление. Родители не сразу одобрили выбор профессии. Однако, увидев мои стремление и настойчивость, они разрешили пойти по этому пути.

Службу начала в ППС Управления по обеспечению безопасности на транспорте Республики Каракалпакстан. В настоящее время прохожу службу в подразделении по обеспечению



печению безопасности Нукусского международного аэропорта.

Любые реформы становятся стимулом к изменениям. Главное, что эти преобразования открывают перед нами новые возможности, укрепляют уверенность в завтрашнем дне.

Гулназ ЖАНГАБАЕВА,
рядовая.



КИЧИК ЯРАЛАР – КАТТА ОГОҲЛИК

Стоматит – оғиз бўшлиғида, шу жумладан тил, ёноқ ва милк шиллиқ қаватларида юзага келадиган яллиғланиш ҳолати. У одатда оғриқли бўлиб, овқатланиш ва сув ичишда қийинчилик туғдиради. Асосан, болалар ва ўсмирларда тез-тез учрайди, катталарда эса иммунитет пасайганда намоён бўлиши мумкин.

Ушбу хасталикнинг энг кўп учрайдиган белгилари: оғизда ёниш ҳисси, лаб ва ёноқларнинг ички қисмида оғриқ ёки тирналиш, кичик яралар, тошмалар ва қизил доғлар. Айрим ҳолларда, ҳатто оддий овқатланиш ва сув ичиш ҳам оғриқ келтириши мумкин. Шунинг учун унга биринчи аломатлариданоқ эътиборли бўлиш жуда муҳим.

Бу касалликнинг пайдо бўлиши бир қатор омиллар билан боғлиқ. Вируслар ва бактериялар, замбуруғ инфекциялари, жароҳатлар, тил ёки ёноқни тишлаш, иссиқ ва қаттиқ овқатлар, аллергиялар, нотўғри овқатланиш, стресс ва иммунитет пасайиши шулар жумласидандир. Шунингдек, **афтоз стоматит**да яралар кўпинча стресс, иммунитет нотўғри ишлаши



ёки озиқ-овқатга сезувчанлик туфайли пайдо бўлиши мумкин.

Герпес ва афтоз стоматитнинг энг кўп учрайдиган турларидир. Герпес вируси одатда лаб ва ёноқларда совуқ пуфакчалар шаклида намоён бўлади. Бир марта юктирилгандан кейин вирус организмда сақланиб, иммунитет пасайганда стоматит яна такрорланиши мумкин.

Афтоз стоматит эса кичик, оғриқли яралар билан намоён

бўлиб, 1–2 ҳафта ичида ўз-ўзидан шифо топади. Бу тур одатда болалар ва ўсмирларда кўп учрайди ва унда оғир жараёнлар кам учрайди.

Қачон шифокорга мурожаат этиш керак, деган ўринли савол туғилади. Сабаби аниқ бўлмаган стоматитда, симптомлар 2 ҳафтадан ортиқ давом этса, овқатланиш ва сув ичиш қийин бўлса, яралар юқори иситма ва ноқулайлик билан бирга бўлса, албатта, шифокорга мурожаат этиш лозим.

Стоматитнинг энгил турлари кўпинча даволанишсиз, ўз-ўзидан ўтиб кетади. Оғриқни камайтириш учун ибупрофен ёки парацетамол каби дори-лар, маҳаллий оғриқсизлантирувчи геллар, шунингдек, музқаймоқ самарали восита ҳисобланади.

Профилактика эса оддий, лекин самарали: тишларни эрталаб

ва кечқурун ювиш, оғизни мой-чечак дамламаси билан чайиш, витамин ва минералларга бой озиқ-овқат истеъмол қилиш, иссиқ, аччиқ ва аллергия келтирувчи таомлардан эҳтиёт бўлиш, стрессни назорат қилиш лозим.

Азиз ТЎХТАМУРОВОД,
ИИВ Стоматология
поликлиникаси
бўлинма бошлиғи,
лейтенант.

ТАН СИҲАТЛИГИ УЧУН ТАБИИЙ НЕЪМАТ

С, Е, РР, Н ҳамда В гуруҳи витаминларини ўз ичига олган қизил пиёз табиий антибиотик ҳисобланиб, мавсумий инфекциялар юқишининг олдини оладиган фитонцидларга бой. Унинг таъми оддий пиёзларга қараганда ширинроқ ва нозикроқ, деярли аччиқ эмас. Асосан хом ҳолатда истеъмол қилинадиган қизил пиёз салатларга солинади, сабзавот бўлаклари ва бошқа егуликларни безашда ишлатилади. Бу турдаги пиёз тузлама ва маринадларни тайёрлашда ҳам қўл келади.

Таркибида калий, натрий, магний, кальций, йод, марганец, фосфор моддалари бўлган қизил пиёзни мунтазам истеъмол қилиш организм учун жуда фойдали. Ушбу бебаҳо неъмат овқат ҳазмини рағбатлантириб, милклар шамоллашининг олдини олади, иммунитетни оширади, асаб тизимини мустаҳкамлайди ва қон томирлари эластиклигини (қайишқоқлигини) оширади.

Шунингдек, бу сабзавот озишда ёрдам беради, тери, соч ва тирноқлар ҳолатини яхшилаб, юрак-қон томир тизими фаолиятини қўллаб-қувватлайди. У касаллик ва стрессдан кейин тикланишга ёрдам бериб, кўзлар учун ҳам фойдали ҳисобланади.

Советы врача

КАК ЛЕЧИТСЯ ЗАЛОЖЕННОСТЬ НОСА?

В зимний период учащаются заболевания, связанные с дыхательными путями. Многие из них сопровождаются заложенностью носа. Какие методы и средства применяются для лечения? Ниже приводятся ответы на этот вопрос.

СПЕЦИАЛЬНЫЕ КАПЛИ

Их можно применять при ОРВИ, гриппе, бактериальных инфекциях, хронической заложенности носа, сухости в носу, чрезмерном пересыхании слизистых оболочек, в целях профилактики респираторных инфекций и аллергии.

В зависимости от вида заболевания подбираются разные капли, поэтому их эффективность во многом зависит от правильности диагноза.

ФИЗИОТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕДУРЫ

В условиях физиотерапевтического кабинета пациентам могут назначаться курсы прогревания пазух или УФ-облучения. Коротковолновое ультрафиолетовое излучение стимулирует кровообращение, уменьшает отек, оказывает противомикробное действие. Прогревание способствует разжижению скопившейся слизи и улучшению кровообращения. Заложенность носа может уменьшиться

уже во время процедур, а при комплексной терапии эффект сохраняется длительное время.

Точечный массаж также может быть полезен, особенно если заложенность вызвана отеком или скоплением слизи. Процедуру можно выполнять в домашних условиях – поочередно массировать виски, крылья носа (от кончика к боковым пазухам), точку между верхней губой и носом. Длительное надавливание на область над бровями также улучшает кровообращение.

РЕЦЕПТЫ НА ОСНОВЕ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ

Среди народных средств, применяемых при заложенности носа, наиболее популярны следующие.

Сок каланхоэ и алоэ – используется для закапывания в нос при простуде. Эффект сильно зависит от индивидуальных особенностей организма. Сок каланхоэ может вызывать приступы аллергического ринита.

Имбирь – применяется в напитках и для ингаляций. При приеме внутрь улучшает кровообращение, согревает, укрепляет иммунитет и помогает бороться с инфекциями. Людям с повышенным артериальным давлением следует применять с осторожностью.

Лимон – используется для приготовления напитков, стимулирует дыхательную функцию.

Свекла – ее сок при закапывании в нос помогает при скоплении слизи.

Луковый сок – также используется для закапывания в нос, но его необходимо разводить водой, иначе он может вызвать сильное жжение и ожог слизистой оболочки.

Отвар ромашки – применяется для горячих компрессов и закапывания в нос.

Улугбек НОДИРОВ,
врач лечебно-профилактического
учреждения УВД Сырдарьинской области.

Qilni qirq yorib

IZLAR HAQIQATGA
YO'L OCHADI

«So'zsiz guvohlar»

Qishning sovuq kechalaridan biri. Mingbuloq tumani «Mustaqillik» MFY Ozodlik ko'chasidagi 5-uyda xonadon sohiblarining barchasi tinch uyquda. Ammo shu osudalikni noma'lum shaxslar buzdi.

Tun qorong'isida ular deraza orqali uyga o'g'irlikka kirishdi. Sekin, iz qoldirmaslikka uringan holda, xonalarni titkilashdi. Tokchada, qutida, sandiqda saqlangan qimmatbaho tilla buyumlar birma-bir yonxaltalarga joylandi. Har biri bozor bahosida 20 million so'm bo'lgan ikki dona «Lodka» nomli tilla uzuk, bir dona 15 million so'mlik «Boburshoh» nomli tilla uzuk va boshqa turli tilla taqinchoqlar ham qo'shib, jami 139 million 800 ming so'mlik boylik tun qa'rida g'oyib bo'ldi.

Ertasi kuni xonadon egasi Abror Dadaboyev (ism-shariflar o'zgartirildi) tuman IIB boshlig'i nomiga ariza bilan murojaat qildi. Uning so'zlarida achchiq iztirob, ko'zlarida esa adolatga umid bor edi.

Podpolkovnik Shuhrat Davlatov rahbarligidagi ekspert-kriminalistlar jinoyat joyini tekshirishga kirishdi. Eng maydachuyda tafsilot ham muhim edi: deraza romlari, pol, mebel yuzasi. Tekshiruv davomida u maxsus texnika va ilmiy bilimlar orqali o'ziga kerakli ma'lumotni to'pladi. Hodisa joyidan olingan qo'l-barmoq izlari biometrik baza bilan solishtirilib, jinoyatchilar shaxsi aniqlandi.

Qo'l-barmoq izlari gapira olmasa-da, ular har bir harakatni, har bir qadamni ko'rsatgandi. Tajribali ekspert-kriminalistning ilmiy bilimi yordamida amalga oshirilgan tekshiruvlar jinoyatni fosh etishga olib keldi.

Qalbaki imzo

Sh. Davlatov kunning birinchi yarmida Namangan shahri Davlatobod tumani Sportchilar ko'chasidagi yer uchastkasi bilan bog'liq jinoyat ishi bo'yicha ish olib borishga kirishdi. Ishning boshidanoq, e'tiborini tortishi mumkin bo'lgan bir nechta belgilarni qayd etdi. Yer uchast-

kasi kadastr rejasidagi hujjatlarni ko'rib chiqarkan, o'zini filialning kadastr muhandisi sifatida tanishtirgan B. G'aniyev imzolarini to'liq tekshirishga qaror qildi. Kadastr rejasini tahlil qilayotib, imzo hamda ro'yxatdagi ma'lumotlar o'rtasida noxolisliklar mavjudligini ko'rdi. Shubhali imzolar xatshunoslik va texnik-kriminalistik ekspertiza orqali tekshirilib, ular qalbaki ekani isbotlandi. Birgina imzo ortida katta qonunbuzarlik turgani ayon bo'ldi.

Bu kabi ishlarni ochish oson emas. Bu bilim, malaka va tajriba talab qiladigan jarayon. Daktiloskopik, trasologik, xatshunoslik, ballistik va hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizalari barchasi haqiqatga yetishish yo'lida xizmat qiladi.

Inson taqdiriga daxldor

Podpolkovnik Shuhrat Davlatov Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Ekspert-kriminalistika markazi biometrik identifikatsiya qilish guruhi katta eksperti sifatida har kuni qo'l-barmoq izlari, imzolar, hujjatlar va biometrik ma'lumotlar orqali haqiqatni tiklash yo'lida xizmat qiladi. Faoliyatining natijasi esa minglab insonlar taqdiriga daxl qiladi.

– O'tgan yilning 24–28-noyabr kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida o'tkazilgan BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi seminar-treningida ishtirok etib, bilimlarimni boyitdim, – deydi u. – «Hodisa joylarini dronlar yordamida kartografiya va 3D suratga olish» mavzusidagi mashg'ulotlar yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Endi jinoyat joyi nafaqat yerdan, balki osmondan ham ko'zdan kechiriladi.

Ha, bu kabi xalqaro tajriba ham uning kasbiy salohiyatini boyitmoqda. Ta'kidlash joizki, bu ishda bilim va amaliy tajribaning hamjihatligi orqali haqiqatga yo'l ochiladi. Jinoyatning fosh etilishida zamonaviy kriminalistika usullarining samarali qo'llanilishi esa uning tizimdagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Hamkasblarimiz haqida

ENG KATTA
MUKOFOT

El-yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan xodimlarning har kuni mas'uliyat, sergaklik va fidoyilik bilan o'tadi. Ana shunday xodimlardan biri – **Surxondaryo viloyati IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoni PPX otryadi bo'linma komandiri, safdor Ravshan Yakubovdir.**

Ravshan Yakubov qariyb 15 yildan beri ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelmoqda. Ko'plab qidiruv ishlarida, jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishda jonbozlik ko'rsatdi. Ayniqsa, sohaviy xizmatdagi sergaklik va intizom uning kundalik faoliyatining ajralmas qismiga aylandi.

Termiz shahridagi markaziy savdo do'konlaridan birida o'g'rilik sodir etilgani haqida xabar olinganida lavhamiz qahramoni tezkor va oqilona harakat qildi. Hodisa joyiga zudlik bilan yetib borib, videokuzatuv kameralari yordamida gumonlanuvchining tasvirlarini aniqladi va bu uning shaxsini belgilashda, jinoyatning qisqa fursatda ochilishida asosiy omil bo'ldi.

Xizmat vazifasini bajarish chog'ida yordamga muhtoj bo'lib qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, og'ir holatlarda inson hayotini saqlab qolish kabi ishlar ham uning xizmat yo'lida ko'p bor uchragan.

– Kasbimizning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor, albat, – deydi u. – Chunki har xil toifadagi odamlarga duch kelamiz: yaxshi ham, yomon ham bor. Lekin qanday vaziyat bo'lmasin, vazifamizni unutmazlikka, bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qilamiz. Janjalli, qaltis holatlarda ham vaziyatni yumshatib, qonuniy va insoniy yo'l bilan yechim topishga intilamiz. Odamlardan «otangga rahmat!» degan so'zlarni eshitganda esa, barcha charchoqlarimiz unutiladi.

Uch nafar farzandning otasi sifatida u xizmat bilan oilaviy mas'uliyatni uyg'un olib bormoqda, ularga halol mehnat, vatanparvarlik va odamiylik namunasini ko'rsatib kelmoqda.

Osoyishtalik posboni ularning kundalik, ko'pincha ko'zga ko'rinmas mehnati ortida minglab odamlarning xotirjamligi, jamiyat barqarorligi mujassam. Bunday fidoyi insonlar bor ekan, qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligi yo'lidagi ishonch yanada mustahkamlanib boraveradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Xavfsiz va sog'lom yurt

QUVONCH QOBIG'IGA O'RALGAN FOJIA

Viloyatda o'tkazilayotgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor profilaktik tadbirlarining 3-bosqichi doirasida viloyat IIB JQB UJQKB va viloyat Bojxona boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda Samarqand Temiryo'l vokzali hududida tezkor tadbir o'tkazilganda 1999-yilda tug'ilgan shaxs avtomashinasidan 96 million so'mlik pirotexnika vositalari topildi. Urgut tumanida olib borilgan tezkor tadbirlarda esa ikki nafar fuqaro taxminiy bahosi 60 million so'mlik pirotexnika vositalarini sotish maqsadida saqlab kelayotganligi aniqlanib, ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Kattaqo'rg'on shahrida YPX xodimlari tomonidan haydovchi mashinasida «Korolevskiy» nomli 72 dona pirotexnika vositalarini noqonuniy olib kelayotgani aniqlandi. Mazkur holat yuzasidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, IIBga topshirildi.

– Ko'plab baxtsiz hodisalar, kuyishlar, ko'z va quloq jarohatlari aynan shu pirotexnika vosita-

lari bilan bog'liq. Ayniqsa, yosh bolalarning bunday buyumlarni o'ynashi ba'zida og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, pirotexnika atrof-muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qattiq ovozlari odamlarni cho'chitadi, qo'rqitadi, havoni ifloslantiradi, yong'in chiqishi xavfini oshiradi, – deydi viloyat IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi SENM epide-

miolog-shifokori Dilnoza Abdullayeva.

Pirotexnika vositalarini quvonch qobig'iga o'ralgan fojia, desak ham bo'ladi. Chunki u bayram kunlari ba'zan shodlik o'rniga qayg'uli holatlarga sabab

bo'layotgani haqida misollar ko'p. Shu bois, bayramni chin ma'noda quvonchli, xavfsiz va mazmunli o'tishida salyut va paqildoqlar shart emas. Madaniy tadbirlar, oilaviy an'analar va yaxshi kayfiyat har qanday

paqildoq ovozidan ko'ra qimmatliroq ekanligini unutmaylik.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



«QANIYDI, BU JINOYAT OXIRGISI BO'LSA...»

Tun. Xiva shahar markazidagi ko'chalar jim-jit. Faqat birgina chiroq miltillab yonib-o'chib turibdi. Bu ichki ishlar organlari PPX xodimlarining nazorat maskani. Shu yerda xizmat o'tayotgan xodimlar faoliyatini o'rganishga kelgan kapitan Shuhrat Aminov maskandagi hujjatlarni ko'zdan kechirar ekan, uning diqqatini ko'chada goh u tarafga, goh bu tomonga olazarak boqib yurgan o'spirin tortdi.

Xodimlar zudlik bilan o'smirni maskanga olib kelishdi. Bosh chayqalib, gaplarini uzuq-yuluq gapirayotgan bu yigitchaning yonidan chiqqan bir chimdim giyohvandlik moddasi xodimlarni tumanning «Guliston» mahallasi tomon yetakladi.

Rahbariyatga axborot berilgach, tezkor guruh tomonidan zahriqotil sotuvchi xonadon kuzatuvga olindi. Oradan yarim soatlar chamasi vaqt o'tgach, qorong'u kechada chiroqlarini o'chirib kelayotgan avtomashina ovozi xodimlar diqqatini tortdi. Mashina o'spirin yigitcha bergan ma'lumotdagi xonadon eshigi oldidan biroz narida to'xtadi. To'satdan bostirib kirilgach, xaridor va sotuvchilar o'zlarini panaga, qorong'ulik ichiga urishdi. Ammo tashqarida birin-ketin qo'lga tushishdi. Tintuv davomida uyning yotoqxonasiga

yashirilgan maxsus paket topildi. Unda 510 gramm mariyuana bor edi.



Tezkor guruh mashinaga qaytar ekan, tong yorishayotgandi. Xiva yana uyg'onardi va odamlar o'z uylarida xavfsiz tongni qarshi olayotgandi. Shuhrat esa, ikki yosh

yigit, ularning oilasi taqdirini o'ylar ekan, «Qaniydi, bu jinoyat oxirgisi bo'lsa edi», degan o'yga cho'mdi.

Xiva shahar IIB Tezkor-qidiruv xizmati xodimi, kapitan Shuhrat Aminovning o'sha tunda ko'rsatgan hushyorligi – bu viloyatda o'tkazilayotgan keng ko'lamlı tizimli ishlarining biridan misol edi, xolos.

O'tgan yilgi profilaktik tadbirlar

yor xodimlar sa'y-harakatlari bilan 29 nafar qidiruvdagi shaxs ushlandi. 16 nafar bedarak yo'qolganlarning taqdiri oydinlashdi. Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq 136 ta holat aniqlanib, ularga o'z vaqtida chora ko'rildi.

«Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli profilaktik tadbirlarining uchinchi bosqichi doirasida 4 kgdan ziyod giyohvandlik moddalari, 1618 dona psixotrop dori vositalari, 10 ta o'qotar va 7 ta pnevmatik qurol, 7 ta sovuq qurol, 132 dona noqonuniy diniy adabiyot, 115 ta boshqa turli xildagi ashyolar dalil sifatida olindi.

Kapitan Shuhrat Aminov singari ziyrak yigitlar tizimining bir bo'lasi hisoblanadi. Ular bir-biriga ulanib, bugungi Xorazm zaminidagi tinchlik, osoyishtalikni yaratadi. Ular biz uchun tun bo'yi uyg'oq yuradi. Biz esa ertalab havfsiz, bemaol uyg'onar ekanmiz, boringizga shukr yigitlar, deging keladi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.



Soha fidoyisi

O'Z ISHINING USTASI

Abdurazzoq maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq ichki ishlar organlari sohasiga mehr qo'ygandi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi xodimlarining maktabga tashriflari undagi ishtiyoqni yanada kuchaytirdi. 2017 yilda IIV Akademiyasiga o'qishga qabul qilinishi esa bolalik orzusi ro'yobga chiqishiga sabab bo'ldi. Albatta, bunda uning bilimi, ayniqsa, ikkita xorij tilini puxta o'zlashtirgani qo'l keldi.

Akademiyada ekspert-kriminalistika yo'nalishida tahsil olgan Abdurazzoq amaliyot davrida jinoyatlarni «issiq izida» ochish uchun voqea joyidan ashyoviy dalillarni topish, puxta va aniq tadqiq etish jarayonlarini o'rganib, bilim va malakasini boyitdi. 2020-yilda viloyat IIB Ekspert-kriminalistika bo'limida ekspert sifatida mustaqil faoliyatini boshladi.

Albatta, amaliyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun faqatgina chuqur bilimning o'zi yetarli emas. Buning uchun xodim tajriba orttirishi, tinimsiz izlanishda bo'lishi lozim. Shu bilan birga, bu borada ustozga ehtiyoj seziladi. Xuddi shunday, yosh leytenant Ab-



durazzoq Xudoyberdiyev ham ilk xizmat faoliyatini boshlagan kezlarda hozirda viloyat IIB EKM boshlig'i, podpolkovnik Jamshid Shermatov va bosh ekspert, podpolkovnik Serali Muhammadiyevdan sohaning o'ziga ma'lum bo'lmagan jihatlarni o'rgandi...

Kapitan Abdurazzoq Xudoyberdiyev bugungi kunda o'z kasbining ustasiga aylangan. Negaki, u qator yo'nalishlarda tadqiqotlar o'tkazib, jinoyatlarini fosh etishda sohaviy xizmatlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vakillariga ko'maklashmoqda. Jumladan, o'tgan yil fevral oyida bank binosi oldidagi «Damas» rusumli avtomashinada qoldirilgan

150 million so'm pul o'g'irlanadi. Tergov-tezkor guruhi tarkibida voqea joyiga chiqqan katta ekspert, kapitan Abdurazzoq Xudoyberdiyev «Damas»dan qo'l-barmoq izlari oladi. Tekshiruv jarayonida esa olingan barmoq izlari Qarshi shahrida yashovchi X.O.ga tegishli ekani ma'lum bo'ldi. Jinoyatchi shu kunning o'zida qo'lga olinib, o'g'irlangan pul-lar egasiga qaytarildi.

Lavhamiz qahramoni soha vakillari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. O'tgan yili sentabr oyida Farg'ona viloyatida Respublika IIV EKBM tizimidagi ekspert-kriminalistika xizmatlari o'rtasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda yuksak kasb mahorati, bilimi va tashabbuskorlik qobiliyatini namoyon etib, ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgani buning tasdig'idir.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Muqaddas qadamjolar

MING YILLIK CHORCHINOR

Asrlar davomida ko'kka bo'y cho'zib turgan chinorlarni ko'rganmisiz?! Tanasi va shoxlari xalqning boshidan kechirgan o'tmishidan so'z ochadigan azim chinorlarni? Agar Samarqand viloyati Urgut shahrining markazidan oqib o'tadigan soy bo'ylab yuqorilab boraversangiz bir-biriga ulanib ketgan, ulkan-ulkan daraxtlarni ko'rasiz.

Ularning shoxlari shu qadar quyuqki, quyoshning zarrin nurlari ahyon-ahyonda ko'rinadi. Chinorzor poyidan sal nariroqda buloqlardan chiqayotgan zilol suv oqib o'tadi. Bu suvdan kaftingizni to'ldirib ichsangiz uning mazali ta'mi tanangizga yengillik baxsh etadi. Urgut shahri markazidan uch kilometr tepalikda joylashgan bu manzilni mahalliy aholi – Chorchinor deb ataydi.

Ulkan chinorlar bilan o'ralib, yuqorisi tog'lar bilan tutashib ketgan bu ziyoratgoh chinorlari yozning chillasida ham bu yerning havosini mo'tadil saqlaydi. Xush havosi, maftunkor manzarasi kishini o'ziga rom etadi. Kirish darvozasi-dan boshlab markaziy yo'lakning ikki tarafidan yuqoriga qarab chinorlar tizmasi qad rostlab borgan. Chap qatordagi chinorlar ichida ikkinchi chinor o'zining kengligi bilan sayyohlar diqqatini tortadi.

Rivoyatlarga ko'ra, bu chinor o'tmishda chilla-xona xizmatini o'tagan.

Sho'rolarning dastlabki hukmronlik davrida esa bir muddat bolsheviklarning majlis o'tkazadigan joy vazifasini bajargan emish. Boshqa bir rivoyatga ko'ra, arab qo'mondonlaridan biri Xoja Abu Tolib Urgutga hukmdor bo'lib, buloq atrofida to'rt dona chinor ektiradi. U vafot etgach (866–867-yillar), shu chinorlar yaqinida dafn etiladi. Taroqsozlik bilan shug'ullangan asli arabistonlik bo'lgan bu ulug' zot dinga e'tiqodi baland bo'lib, dastlab Buxoro, Samarqand so'ngra Urgutga kelib shu yerda muqim yashab qolgan ekan.

Bu joyning yana bir nomi «Xoja Chorchinor» deb atalishi shu bilan bog'liq. Xoja Abu Tolib Sarmastning nomi va hayotiy faoliyati Urgut tumani Chorchinor mavzesi bilan bog'langan. Urgutning xushmanzara soya-salqin go'shalaridan biri bo'lgan mazkur manzil – Chorchinorning nomi o'tmish va hozirda bir qator

tarixiy manbalarda, ko'plab ilmiy badiiy adabiyotlarda ham tilga olingan.

Chorchinor majmuasi ichida 1914-yilda Shayx



Muhiddinxon tomonidan qurilgan masjid bor. Masjiddan dastlab madrasa sifatida foydalanilgan. Bino Abduqodir (1868–1934-yillar) ismli usta tomonidan qurilgan. 1927-yilgacha mazkur madrasada na-faqat Urgut, balki shu yaqin hududlardan kelgan tolibi ilmlarga saboq berilgan.

Yilning to'rt faslida ham bu maskandan sayyohlarning qadami uzilmaydi. Olti asrlik o'tmish haqida



ming yildan oshadi. Chinorlardan biri 1162-yilda ekilgan, balandligi 35 metrni tashkil qiladi. Ulardan birining ildizlari g'or hosil qilgan. G'or ichidagi joyning diametri 16 metrga yetadi. Bu yerga o'ymakor yog'och eshik orqali kirish mumkin. Ichkarida devorlar qisman g'isht bilan qurilgan. G'or o'nga yaqin odamni sig'dira oladi.

Soya-salqin, fayzli bu ziyoratgohda Shayx Muhiddinxon Eshon Valixon o'g'li qurdirgan madrasa ham bor. XIX asrlarda ulkan chinorning ichida maktab tashkil etilgan. Hozirgacha ham undan qolgan yodgorliklar saqlanib qolgan. Bunday maskanlarni ziyorat qilgan kishi ko'ngliga ilqlik inib, undan hikmat topadi.

Umida MAMADALIYEVA
tayyorladi.



Кўнгилга ташриф

Даврон Каримов Сирдарё вилоятида туғилган. Тошкент давлат санъат ва маданият институтини тамомлаган. Айни пайтда Ўзбек Миллий академик драма театрида фаолият олиб борапти. Иқтидорли актёр отахон театримиз сахнасида «Чўлпон», «Адолат фасли», «Усмон Носир», «Аршин мал алан», «Ўткан кунлар», «Икки даҳо» («Навоий ва Жомий»), «Садоқат билан...» («Офицерлар»), «Келди-ю, кетди» спектаклларида Сизир, Мироншоҳ, Сулаймон, Маврин, Мутал, Ҳасан Ардашер, Келдиёр Кетдиёров сингари бир-бирини такрорламайдиган образларни маҳорат билан ижро этган. Шунинг баробарида «Қароқчилар», «Жасур», «Бурч», «Севги фасли» каби кинокартиналар, «Сержантлар-2», «Синов», «Она дарё», «Фидойилар» «Орзулар фасли», «Турмуш-мушт» сингари қатор сериаллар ва теленовеллаларда ўзига хос ижролари билан мухлислар эътиборини қозониб келмоқда. У «Маданият ва санъат фидокори» кўкрак нишони соҳиби.

Оламни ҳамиша санъаткор нигоҳи билан кўриб, талқин этишга одатланган актёрнинг театр, сахна ҳаёти, кино, сериаллар, устоз ва шогирд аъёнаси, иқтидор ва маҳорат борасидаги қарашлари, фикр-мулоҳазаларини саволлар билан чегараламай, шундай соф, самимий тарзда сизга илиндик.



«АКТЁР САҲНАДА ЯШАШИ КЕРАК»

ХОДИМ БЎЛИШИМ МУМКИН ЭДИ

Сирдарёда ижтимоий-гуманитар фанларга ихтисослашган гимназияда таҳсил олганман. Мушиқа фанидан дарс берадиган Суннат исмли ўқитувчимнинг: «Сендан яхши актёр чиқади», – деган сўзлари қалбимдаги санъат учқунларини алангалаган. Қизиқишларим ортидан Тошкент давлат санъат ва маданият институтига ўқишга кирдим. Ўйлаб қарасам, ўшанда санъат йўлини танламаганимда, менимча, ички ишлар органи ходими бўлардим. Чунки тарих, ҳуқуқ фанларидан аъло баҳоларга ўқиганман. Қолаверса, бу соҳага бефарқ бўлмаганман. Ҳозиргача ҳуқуқ-тартибот соҳаси ходимларининг ролини ўзгача иштиёқ билан ижро қиламан.

Таъбир жоиз бўлса, ҳар бир образнинг яралиши нонга ўхшайди. Нон оддий сув, ун ва туз қўшиб тайёрланади. Бироқ уни қанчалик ёғ, сут, шакар, тухум қабилар билан бойитганимиз сайин мазали патирга айланиб боради. Нон – азиз неъмат, лекин барибир патир егимиз келади.

УСТОЗ КЎРГАНМАН

Мен театр сахнасида жуда ёш келганман ва устоз кўрганман. Бу жиҳатдан ўзимни жуда омадлиман, дея оламан. Сабаби, қизиққан, меҳр қўйган соҳам бўйича таълим олиш жараёнидаёқ устоз санъаткор Мунаввара Абдуллаевадан сабоқ олдим. Талабалик йилларимда Аброр Ҳидоятлов номидаги ўзбек давлат драма театрида Баҳодир Йўлдошев



қўлида фаолият бошладим. Кейин Ўзбек Миллий академик драма театрига ўтдим. Ҳозирги кунгача ушбу даргоҳ мен учун қадрли маскан бўлиб келмоқда. Халқимиз меҳрини қозонган (Аллоҳ раҳматига олган бўлсин) Тўти Юсупова, Яйра Абдуллаева, Ёқуб Аҳмедов, Фатхулла Маъсудов сингари ўз ўрнида талабчан устоз, ота-онамдек меҳрибон санъаткорларнинг беминнат маслаҳатлари, тавсиялари билан санъатда озми-кўпми ютуқларга эришдим. Айни

дамларда Рихсихон Иброҳимова, Теша Мўминов, Тохир Саидов, Фарҳод Абдуллаевдек устозлар билан ёнма-ён фаолият юритиб, маҳоратимни оширяпман.

«СЕН САҲНАГА ЯРАШИБ ТУРИБСАН»

Театрнинг қозонида қайнаш осонмас. Саҳна юракдан яшашни талаб этадиган муқаддас жой. Бунда истеъдод ва яна истеъдод, қалб уйғоқ бўлиши керак. Спектакл бошландими, қаҳрамонингиз йиғласа йиғлаб, кулса кулиб, унга қалбингизни очасиз.

Кечагидек эсимда, «Бева-лар» спектаклини топширишда жуда кўп танқидларга учраганман. Ҳатто театрдан кетаман, деган кунларим ҳам бўлган. Биласизми, шу спектаклни топширган кунимиз устоз санъаткор Тохир Саидов саҳна ортида бағрига босиб: «Сен саҳнага ярашиб турибсан», – деганида ҳамма қийинчиликлар эсимдан чиқиб кетган.

САНЪАТНИНГ НОНИ ҚАТТИҚ

Табиатан кўнгилчан одамман. Лекин негадир режиссёрлар менда салбий қиёфаларни кўп кўришиб, шундай ролларга таклиф этишади. Содда, самимий, бағрикенг, оқибатли ака-укалар, жигарлар образларини ҳам яратганман. Одатда сценарийни ўқиб, ўзимга, ўзлигимга сингдира олган қаҳрамонларни ижро этишга розилик бераман. Бироқ бугунги ахборот технологияларининг ривожини, одамларнинг шов-шувга ўчлигини, нималардандир камчилик изланиши биз актёрларни ҳам янада ўйлаб ўйнашга ундаётгани бор гап.

Яқинда бир яқин дўстим менга «Гумон» теленовелладан беш лаҳзалик лавҳани Телеграмдан юбориб: «Дўстим, бу нимаси?» – деб ёзибди. Аввалига ҳайрон бўлдим. Кейин билсам, шу беш сонйалик видеотасвир «Қайнота-келин хиёнати» номи билан ижтимоий тармоқларда айланиб ётган экан. Шундан сўнг шу лавҳа-

ни менга ташламаган танишим қолмади. Аслида воқеалар ривожини умуман бошқача, қайнота келини билан аёлининг туғилган кунига совға ва Умрага йўлланма олиш учун боради.

Бу теленовеллада тўлиқ очиб берилган. Энди қаранг, сонйалардаги шов-шувли, устига-устак нотўғри талқин билан асл моҳияти ибрат бўлган ижройим номимни қора қилишга етиб ортди. Шундай кезларда «Санъатнинг нони қаттиқ», деб ўзимга тасалли бераман.

ТОМОШАБИН НИГОҲИГА СИНГИБ

Актёр саҳнага бир мақсад, яъни томошабиннинг театрга бўлган қизиқишини, меҳрини ҳис қилиш учун чиқиши керак. Унинг талқинидаги қаҳрамон қайси касб эгаси, неча ёшда, ижобийми, салбийми – бунинг аҳамияти йўқ. Энг муҳими, у томошабин нигоҳларига сингиб, унинг юрагига қолсин. Санъатнинг кучи ҳам шунда. Агар томошабинга актёрнинг ижроси ёқса, у театрга яна келади. Мен ҳам ўз ижроларим билан мухлислар қалбига кириб бориш учун ҳамиша изланаман.

«Адолат фасли»да Мироншоҳ, «Юлдузли тунлар»да Маҳмудхон каби образларим устида ишлаш жараёнида тарихий асарларни қайта-қайта ўқиб чиқиб, дунё тамаддунига беқиёс ҳисса қўшган улуғ аждодларга муносиб бўлишга ҳаракат қилганман, баъзи жойларида уларнинг бошига тушган синовлардан руҳан эзилганман. Қувонарлиси, шу ҳиссиётлар саҳнада халқимизнинг мард ва жасур ўғлонларининг қиёфасини тўқис гавдалантиришимга ёрдам берган. Доим ана шундай изланишда давом этиб, қалбларга зиё олиб киргим келади.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА
ёзиб олди.



Yo'l qoidani yoqtiradi

TRANSPORT
ARTERIYASIDAGI
HUSHYORLIK

Mamlakatimizning M-39 xalqaro avtomobil yo'li eng serqatnov transport arteriyalaridan biridir. U mamlakat ichidagi shaharlardan tashqari, qo'shni davlatlarni ham bog'lovchi strategik transport koridori hisoblanadi. Kuniga o'n minglab texnikalar harakatlanadigan bu yo'lda xavfsizlikni ta'minlash nafaqat mas'uliyat, balki katta matonat ham talab etadi. Jizzax viloyati IIB YHXB YPX katta inspektori, katta serjant Xurshid Donaqlulov ana shunday murakkab hamda sharaflı vazifani sidqidildan bajarib kelayotgan xodimlardan biri.

2011-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan X. Donaqlulov ayni damda M-39 yo'lining Paxtakor tumani hududidan o'tuvchi qismida faoliyat olib borib, joriy yil boshidan buyon yo'l qoidalarini buzgan haydovchilarga nisbatan 150 dan ortiq ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirdi.

Biroq maqsad – jazolash emas, balki yo'llarda tartib o'rnatish va inson hayotini asrash. Yaqinda

sodir bo'lgan bir holat buning isboti. Katta serjant mast holatda rulga o'tirgan haydovchini to'xtatdi. Surishtiruvlar davomida ushbu fuqaro avval ham aynan shunday qilmishi uchun haydovchilik huquqidan mahrum etilgani aniqlandi. O'ziga tegishli xulosa chiqarmasdan, yana yo'lga chiqqan bunday shaxslarning haddini jilovlash yo'llardagi fojialarning oldini olish demakdir. Qoidabuzarga nisbatan



ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi va avtoulov jarima maydonchasiga joylashtirildi.

Lavhamiz qahramoni o'sib kelayotgan yosh avlod bilan bog'liq noxush holatlarga ham befarq emas. Uning tomonidan vodiy

viloyatlaridan biridan kelayotgan, voyaga yetmagan maktab o'quvchisi boshqaruvidagi avtomobilning to'xtatilishi esa ehtimoli katta bo'lgan halokatning oldini oldi. Nafaqat bola, balki uning ota-onasi bilan ham tushuntirish ishlari olib

borilib, qonuniy choralar ko'rildi.

Xalqaro yo'llarda uzoq masofaga qatnaydigan haydovchilarda charchoq alomatları kuzatilishi tabiiy. Xurshid Donaqlulov xizmat davomida haydovchilarning ruhiy va jismoniy holatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Uyqu bosgan yoki toliqqan haydovchilarga biroz dam olishni tavsiya etadi, zaruriy tushuntirish ishlari olib boradi. Zero, bir lahzalik mudroq tuzatib bo'lmas xatoga sabab bo'lishi mumkin.

Har bir muvaffaqiyatli qadam ortida oilaning qo'llab-quvvatlovi tura-di. Xurshidning turmush o'rtog'i Gulhayoxon uy bekasi sifatida ro'zg'or yumushlari va to'rt nafar farzandining tarbiyasini o'z zimmasiga olgan. Xizmatdan qaytishini intizorlik bilan kutadigan farzandlari va shirin oilaviy muhit unga yangi kuch hamda g'ayrat bag'ishlaydi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Zarrabin ostida

Xo'jayli tumani IIBga murojaat qilgan shaxs K. hududdagi xonadonlardan biriga noma'lum kishilar deraza orqali kirib, pul va buyumlarni o'g'rilab ketgani haqida xabar beradi. Ushbu murojaat asosida yo'lga chiqqan tergov-tezkor guruhi qisqa vaqt ichida manzilga yetib boradi. Fuqaro bu uy oila a'zolari bilan birga qo'shni respublikada yashaydigan qarindoshlarinikiga to'y marosimiga ketgan akasiga tegishli ekanligini aytadi.

SINIQDAN
IR
OCHILDI

Guruh a'zolari voqea joyini ko'zdan kechirishayotib, o'g'rilar xonalar ichidagi narsalarni sochib

tashlaganiga guvoh bo'lishadi. Demak, ular xonadonda hech kim yo'qligidan xabardor bo'lgani bois erkin harakat qilishgan. Shunday ekan, o'g'rilar shu yaqin atrofda yashashi mumkin degan taxminlar paydo bo'ldi. Qo'ni-qo'shnilar bilan suhbat o'tkazish davomida voqea tungi payt yuz bergani bois, guvohlar topilmadi.

Guruh tarkibidagi tuman IIB EKG katta eksperti, mayor Ergash Xayrullayev esa xonadon ichida qoldirilgan, o'g'rilarni aniqlashga imkon beradigan dalillarni izlab, har bir buyumni sinchkovlik bilan o'rganishni boshlaydi. Oradan biroz o'tib, u chinni buyum sinig'ida ikkita qo'l barmoq izi qolganligini

aniqlaydi. Ushbu ashyoviy dalillar «Sonda» ADTT bazasi orqali tekshirib ko'rilganida, mazkur tuman-da istiqomat qiluvchi, muqaddam bir necha bor javobgarlikka tortilgan 2010-yilda tug'ilgan o'spiringa tegishli ekanligi ma'lum bo'ladi. U tez orada qo'lga olinib, dastlabki surishtiruv ishlari olib borilganida, o'g'rilikni ikki nafar sherigi bilan birga sodir etganligiga iqror bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday jinoyatni ochishda ashyoviy dalillar juda muhim hisoblanadi. Ularni izlab topish va tekshirish esa ekspertlardan katta mahorat hamda boy tajribani talab qiladi. Xo'jayli tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Ergash Xayrullayev ana shunday yuqori malakali xodimlardan. U o'tgan yili 170 marotaba voqea joyiga chiqib, tegishliligi bo'yicha ekspertiza xulosalari bergan. Jumladan, 20 dan ortiq holatda jinoyatni ochishga munosib hissa qo'shgan.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



Munosabat

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida mahallalarda ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish orqali xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash bo'yicha manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini samarali joriy etish bilan jinoyatchilikni keskin kamaytirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Xuddi shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida hamda ayollar va yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning asl omillarini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish, «ilmiy xulosa – tavsiya – natija» tamoyili asosida joylarga chiqqan holda o'rganish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish belgilangan.

– «Mening inspektorim» mobil ilovasini yaratish va ommalashtirish ko'zda tutilgani ahamiyatlidir, – deydi Oqoltin tumanidagi «Yangi davr» mahallasi profilaktika inspektori, kapitan Umid Hotamov. – Bu ilova orqali fuqarolar tezkor ravishda o'z hududidagi profilaktika inspektori bilan onlayn muloqot qilishi, foto, audio, video va tashvish xabarlarini yuborishi mumkin. Shuningdek, mo-



bil ilova yordamida aholi tomonidan biz, profilaktika inspektorlarining faoliyatiga baho berish imkoniyati ham yaratiladi.

Shirin shahrida oltita mahalla mavjud. O'tgan yili mahallalarda ikki yuzdan ortiq ijtimoiy profilaktika ishlari amalga oshirilgan.

– Uyma-uy, xonadonma-xonadon yurib aholi muammolarini o'rgandik, – deydi Mahallalar uyushmasi Shirin shahar bo'limi raisi Nargiza Usmonova. – Nizoli oilalarni yarashtirish choralari ko'rdik. Kambag'allik darajasiga tushgan oilalarga ijtimoiy ko'mak ko'rsatildi. Natijada yoshlar

va ayollar o'rtasida jinoyatchilikni kamaytirishga erishdik.

Qarorda 2026-yil 1-mayga qadar nizoli oilalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil va monitoring qilish imkonini beradigan «E-ijtimoiy profilaktika» axborot tizimining «E-nizoli oila» modulini yaratish vazifa etib belgilangani e'tiborga molik. Modul sudlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilinsa, undan sud organlari nizoli oilaning muammolari to'g'risida atroflicha ma'lumot olishi mumkin bo'ladi. Bu ham jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda kutilgan samarani berishi tayin.

Muxtasar aytganda, mazkur qaror mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, «qizil» hududlarda kriminogen vaziyatni yaxshilash, jinoyatchilikni kamaytirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Sportni sev, sport bilan yasha!

SOG'LOM HAYOTGA ELTUVCHI VOSITA

Bugun jamiyatda sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib bormoqda. Ilgari jismoniy harakat faqat sportchilar yoki yoshlar mashg'uloti sifatida qabul qilingan bo'lsa, hozir u har bir insonning kundalik ehtiyojiga aylanmoqda. Ertalab shahar va qishloq ko'chalarida, xiyobonlar va yo'laklarda piyoda sayr qilib yurgan, yugurayotgan yoki velosipedda harakatlanayotgan odamlar soni ortib borayotgani buning yaqqol isbotidir. Ayniqsa, xotin-qizlar va yoshi ulug' insonlarning bu jarayonda faol ishtirok etayotgani e'tiborga molik holatdir.

Baliqchi tumanida 80 yoshdan oshgan ayollarining ham tong saharcha velosiped minib yurganini ko'rish mumkin. Ular uchun bu shunchaki mashg'ulot emas, balki hayot tarziga aylangan odatdir. Ana shunday faol ayollardan biri No-diraxon Imomova har tong velosipedda sayrga chiqadi.

– 12 yoshimdan beri velosiped minaman, – deydi onaxon. – Hozirgi velosipedim, adashmasam, o'n yettinchisi. Ba'zida 14–15 yoshli qizlar bilan ham musobaqalashsam, ortda qolmayman. Sportning sharofati bilan hech kim meni sakson yoshda, deb o'ylamaydi.

Zamonaviy hayot ko'pchilikni kamharakat qilib qo'ydi: uzoq vaqt o'tirib ishlash, avtomobilga ko'nikkan turmush tarzi ortiqcha vazn, qon bosimi, qandli diabet, suyak va bo'g'im

og'riqlari kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun insonlar yana harakatga, yurishga, velosipedga qaytmoqda.

– Jismoniy harakatda bo'lish eng arzon, oson va samarali davo hisoblanadi, – deydi Andijon viloyat IIB Tibbiyot bo'limi shifokori Yoqubjon No'monov. – Jumladan, velosipedda sayr qilish yurak-qon tomir tizimini mustahkamlab, qon bosimini me'yorda ushlab turadi, xolesterin miqdorini kamaytiradi. Ortiqcha vaznga qarshi kurashda ham juda samarali, chunki ular kaloriya sarfini oshiradi va moddalar almashinuvini faollashtiradi. Shu bilan birga, muntazam harakat suyak va bo'g'imlarni mustahkamlab, ulardagi qattqlik va og'riqlarni kamaytiradi. Ruhiy jihatdan esa insonni tinchlantirib,



stressni pasaytiradi, uyqu sifatini yaxshilaydi.

Andijon shahrida yashovchi Risolatxon Abdurahmonovning yoshi 72 da. Bo'g'im og'rig'i bilan uzoq vaqt davolanishiga to'g'ri kelgan. Mutaxassislar unga doimiy harakatda bo'lib tu-



rishni tavsiya etgach, sport murabbiylari maslahati bilan velosiped minishni odat qildi.

– Avvaliga noqulay bo'ldi, – deydi onaxon. – Shu bois Andijon shahridagi «Barkamol avlod» sport majmuasida mustaqil tarzda shug'ullana boshladim. Oradan hech qancha vaqt o'tmay safdoshlarim paydo bo'ldi. Muhimi, velosiped minishni boshlaganimdan buyon hali biror marta kasal bo'lmadim. Sababi, bunda butun tana a'zolari faollashadi.

Mutaxassislar bir kunda kamida 4–5 km masofani

velosipedda bosib o'tgan kishi hech qachon kasal bo'lmashligini ta'kidlashmoqda. Boisi, bu qon aylanishini yaxshilab, ruhiy va jismoniy kuch bag'ishlar ekan. Xulosa qilib aytganda, bugun velosiped minish oddiy harakat emas, balki sog'lom hayotga yo'nalgan ongli tanlovga aylanmoqda. Zero, harakat – hayot degani, velosiped esa sog'lom hayotga eltuvchi vositadir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.



Kasbiga sodiqlar

TO'QSON MILLION SO'MLIK — ALIMENT

Maftuna (ismlar o'zgartirildi) katta orzular bilan turmush qurgan edi. Ikki-uch yil hammasi yaxshi ketdi. Bu orada ikki nafar farzandli bo'ldi. Biroq vaqt o'tgan sari erining xurmacha qiliqlari chiqa boshladi. Ishdan kech keladigan, arzimagan bahonalar bilan janjal qiladigan odat chiqardi. Topish-tutishining ham barakasi qochdi.

Oilaviy janjallar surunkali tus olgach, Maftuna erining uyiga qaytishidan bezillab qoldi. Janjalsiz o'tgan kun uning uchun bayram edi. Oxiri sabr kosasi to'ldi. Bolalarini olib otasinikiga ketib qoldi. Turmush o'rtog'i ortidan bir necha marta keldi, lekin chilparchin bo'lgan ko'ngil shishasini yamab bo'lmadi.

— Er-xotinni murosaga keltirish, yarashtirish uchun mutasaddi tashkilotlar xodimlari va psixologlar bilan hamkorlikda ko'p ishladik, — deydi Mirzaobod tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, kapitan Irina Xudoynazarova. — Afsuski, oilani saqlab qolishning iloji bo'lmadi.

Shundan so'ng Maftunani ish bilan ta'minlash choralari ko'rildi. U o'zi yashayotgan mahallaga tutash Guliston shahridagi yirik oziq-ovqat majmuasiga ishga joylashdi. Lekin topish-tutishi farzandlarini boqish uchun yetarli bo'lmadi. Shu sabab sudga aliment undirish uchun ariza berdi. Sudda eri o'zini u yoqdan-bu yoqqa tashlab ko'rdi. Shunga qaramay, sud uning zimmasiga farzandlari foydasiga aliment to'lash majburiyatini yukladi.

Er qonun talabiga bepisandlik bilan munosabatda bo'lib, bolalariga g'amxo'rlik qilishdan bosh tortdi. Shuning uchun Maj-



buriy ijro byurosi aliment pullarini undirish bilan shug'ullana boshladi. Erning tegishli mol-mulki, rasmiy daromadi bo'lmagan bo's yig'imni undirish qiyinchilik tug'dira boshladi.

Bu masalaga tuman ichki ishlar organlari tomoshabin bo'lib tura olmasdi. Tuman

IIB xodimlari aliment undirish, yana bir oilaviy nizoning yechimini topish bilan jiddiy shug'ullana boshlandi. Ko'p o'tmay, qonun talablarini bajarishdan qochib yurgan er topildi. Unga qilmishlarining huquqiy oqibati tushuntirildi. Natijada Maftunaning farzandlari foydasiga biryo'la

90 million so'm miqdoridagi aliment puli undirib berildi.

— Ko'rsatilgan ko'mak uchun tuman Ichki ishlar bo'limi xodimlariga minnatdorlik bildiraman, — deydi Maftuna Ilashboyeva. — Undirilgan aliment pulini ko'p qavatli uydan kvartira sotib olish uchun boshlang'ich to'lovga to'lash niyatimiz bor.

Ayollar va voyaga yetmaganlarning haq-huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan yuqoridagi kabi misollarni yana keltirish mumkin. Zotan, ishga mas'uliyat bilan yondashuv tumanda osoyishtalikni saqlashning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Отам билан фахрланаман

ОРЗУНИНГ ОЙДИН ЙЎЛИ

Дилшода болалигидан отасини хизмат кийимида кўриб, унга ҳавас билан улғайган. Отаси истеъфодаги подполковник Рустам Душанов узоқ йиллар ИИБ Академиясида Хизмат психологияси ва касбий маданият кафедраси доценти бўлиб дарс берган, психология фанлари доктори.



Мактабни тамомлаган Дилшода П. Боровский номидаги тиббиёт коллежига ўқишга кириб, ҳамширалик касбини ўрганди. Аммо ички ишлар органи ходими бўлиш орзуси уни тарк этмади.

— Ота-онамга билдирмасдан ИИБ Академиясига ҳужжат топширдим, — дейди у. — Имтиҳонлардан муваффақиятли ўтиб, орзуларим сари ишонч билан қадам ташладим.

Ўқиш даврида қийинчиликлар бўлмаган демайман: ота-онамни соғинардим, қаттиқ талаб ва кучли интизом бор эди. Аммо бу қийинчиликлар менинг мақсадларимга эришишим йўлида ҳеч қачон тўсиқ бўлолмади.

Лавҳамиз қаҳрамони биринчи устози сифатида отасини алоҳида эътироф этади. Ундан ҳалоллик, интизом ва касбга садоқатни ўрганганини ай-

тади. Рустам аканинг ҳар бир маслаҳати, ҳаётий сабоқлари Дилшоданинг шахс сифатида камол топишида муҳим ўрин тутган.

Тошкент шаҳар Юнусобод тумани Тергов бўлимида катта суриштирувчи лавозимида иш бошлаган лейтенант Д. Хўжанова устозлари подполковник Наргиза Искандарова, майор Баҳодир Ақромов ва капитан Саиднўмонхон Аҳроровдан терговнинг нозик сирларини ўрганди.

Ҳозирги кунда катта лейтенант Дилшода Хўжанова Назорат ва таҳлил бўлинимаси катта суриштирувчиси сифатида жиноят ишларини таҳлил қилади, қонунчиликка мос таклифлар тайёрлайди. Ёш терговчиларни қўллаб-қувватлайди, ҳужжатларни текшириб, суд ва прокуратура органлари билан ҳамкорлик қилади.

— Мен ишимдан завқ оламан. Чарчасам ҳам буни сездирмасликка ҳаракат қиламан, чунки бу — орзуимдаги касб, — дейди у табассум билан.

Дилшода ўтган йили «Фидойи аёл» кўрик-танловида 3-ўринни қўлга киритди, «Заковат» кўрик-танловининг доимий иштирокчиси ҳисобланади.

Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз muxbirimiz.

Тошкент шаҳри.

ILM BILAN YUKSALAR INSON

Farg'ona viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi kadrlar guruhi katta inspektori, mayor Jahongir Mirzatillayev tergov sohasiga maktab partasidayoq qiziqqa boshlagan. Shu bois huquqshunoslik fanini juda yoqtirar, ustozlariga savol berib charchamasdi.

— Maktabda o'qib yurgan paytlarimda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyimiga havas bilan qarardim, — deydi u. — Nazdimda, ular xalqning og'ir kunida yordam beradigan, adashganlarga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan, jabrlanganlarni himoya qiladigan haqiqiy qahramonlar edi. Ulg'ayib bildimki, aslida ham shunday ekan.

2017-yilda IIV Akademiyasini tamomlagan Jahongir Farg'ona tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limida tergovchi bo'lib ish boshladi. Keyinchalik Farg'ona shahar IIOFMBda ustozlaridan soha sirlarini, tergovchiga xos fazilatlarini puxta o'rgandi.

Lavhamiz qahramoni huquqiy bilimlarini muttasil oshirib, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan xodimlardan.

Jahongir Mirzatillayev rus va ingliz tillarini juda yaxshi biladi. Soha xodimlari o'rtasida o'tkaziladigan turli ko'rik-tanlovlar, «Zakovat» intellektual o'yinlarida ham doim faol qatnashib keladi. 2017-yilda o'tkazilgan «Buyuk kelajagimiz posbonlari» respublika ko'rik-tanlovida faxrli 1-o'ringa, 2019-yilda respublika ko'rik-tanlovida 3-o'ringa sa-zovor bo'lgan. 2025-yil oktabr oyida «Eng yaxshi namunali tergovchi» nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.



Jahongirning turmush o'rtog'i Sayyorxon ham Farg'ona davlat universiteti doktoranturasida filologiya yo'nalishida tahsil olish bilan birga, ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ular hamjihatlikda 3 nafar farzandni voyaga yetkazishyapti.

— Ustozlarimning aytishicha, jinoyatlar har tomonlama, to'la va xolisona tergov qilinsa, surishtiruv va dastlabki tergovni yuritishda qonuniylikka so'zsiz rioya etilsa, adolat doim tantana qilaveradi. Biror insonning huquqi buzilmaydi, — deydi soha fidoyisi. — Buning uchun, albatta, har bir tergovchi o'zining nazariy va amaliy bilimlarini doimiy oshirib borishi kerak.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Касб фидойиси

ПОСБОНИМАН МУҚАДДАС ЮРТНИНГ

Ватаннинг ҳар бир қарич тупроғи азиз ва муқаддас, уни ташқи ва ички душмандан ҳимоя қилиш ҳақиқий мард йигитнинг шарафли бурчи саналади. Ички ишлар органлари ходимлари ҳам юрт ҳимоясига отланган фидойи ўғлонлардир.

Фарғона вилояти ИИБ Тезкор вазибаларни бажарувчи сафарбар отряди ишғол қилиш гуруҳи катта мутахассиси, катта сержант Ислонжон Маруфов шарафли Ватанимиз осойишталиги, фуқароларимиз хавфсизлигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшиб келаётганидан доим фахрланади.

Қўштепа туманидаги Қўмтепа қишлоғида туғилиб камолга етган Ислонжон болалигидан спортнинг муайтай турига меҳр қўйгани боис, спорт клубларига қатнаб, ўз устида тинимсиз ишлади. Марғилон педагогика коллежида жисмоний тарбия ва болалар спорти йўналишида ўқиб, мураббийлар сабоғини олди. 2016 йилдан 2021 йилгача мамлакат миқёсидаги чемпионатлар, Осиё ва халқаро даражадаги мусобақаларда юқори ўринларни банд этди. Бугун унинг бисотида шода-шода медаллар тизилиб турибди.

У болалигидан ички ишлар органларида ишлашни ўз олдиға мақсад қилиб қўйган эди. Эзгу ниятлари ижобат бўлиб, 2018 йилда ички ишлар органлари сафига ишга кирди. Бугун у шарафли ва масъулиятли соҳада мардонатор хизмат қилиб, устозлари ва

ота-онасининг муносиб ишончини оқламоқда.

Ислонжон кенжа фарзанд бўлганлиги учун ота-онаси билан бирга яшайди. Ҳар куни тонгда юрт хизматиға отланаркан, отаси Мухторжон ака ва волидаси Барнохон аядан дуо олиб, остона ҳатлайди. Бу эзгу дуолар эса кун давомида унинг ишларига мададкор бўлиб туради. Турмуш ўртоғи Рўзихон эса уйда икки нафар ўғли – Маруфхон ва Муҳаммадризоларнинг тарбияси билан банд.

Тезкор вазибаларни бажарувчи сафарбар отрядида Ислонжон каби осойишталик посбонларининг муносиб хизмат қилиши, спорт ва ҳарбий машғулотлар билан шуғулланиши учун барча шарт-шароитлар етарли. Раҳбарият ва мураббийларнинг кўрсатмалари, амалий услубий ёрдами эса берилган топшириқларни пухта бажаришда асқатади.

– Спортда ҳам кўплаб ютуқларга сазовор бўлдим. Энг муҳими эса, ўзим севган соҳада ишлаб, она юртимиз тинчлигига муносиб ҳисса қўшаётганимдан доим фахрланаман, – дейди лавҳамиз қаҳрамони.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

Фотоэтнод



**Balandroqqa oting meni, samoda
Yulduzlar tutvolsin jajji qo'llarim.
Kelajagim yorug' bo'lsin yanada,
Hamisha zafarli bo'lsin yo'llarim!**

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(19 – 25 январь)

Қўй (21.03 – 20.04). Мазкур ҳафта сиз танлаган йўл тўғри ва самарадор эканини кўрсатади. Кўтаринки кайфият атрофдагилар ва яқинларингиз билан муносабатларга ижобий таъсир кўрсатади. Ўз маблағларингизни натижали лойиҳаларга сарфланг.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Хизмат жойида барча ишлар барқарор кечади, молиявий муаммолар анча вақтгача безовта қилмайди. Анчадан бери ўз ҳаётини ўзгартиришни орзу қилаётганларни ёқимли янгиликлар кутмоқда. Бунга эришиш учун эса таваккал қилишдан чўчимаслик лозим.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Шу кунларда сиздан ҳам жисман, ҳам руҳан бардошли бўлиш талаб этилади. Кутилмаган муаммолар юзага келиши мумкин. Имкон борица босиқлик билан ҳаракат қилинг. Ҳафта сўнгига бориб барча масалалар бирин-кетин ҳал бўлади.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Бу ҳафтада вақт ва имкониятлар фақат сизга итоат этади. Бу даврда ўзингизга бўлган ишонч, қатъият сизни тўлқинлантириб туради. Айниқса, молиявий муаммоларни ижобий ҳал этиш масаласини унутиб қўйманг. Шахсий бизнеси борлар учун молиявий масала биринчи ўринда туриши керак.

Арслон (23.07 – 23.08). Ҳафта жуда ажойиб бошланади ва сиз ҳар бир вазиятни ўз хоҳишингиз бўйича ташкил этиш имконига эга бўласиз. Асосийси, қўрқманг. Дадил ва мардона олдинга қадам ташланг.

Паризод (24.08 – 23.09). Молиявий маблағ сарфларини яқинларингиз билан обдан маслаҳатлашган ҳолда амалга оширганингиз маъқул. Лекин шахсий ҳаётга боғлиқ қарорларни мустақил қабул қилишга ҳаракат қилинг. Бу ҳафта вақтинча ишни ва оилавий ташвишларни бир четга суриб, севимли машғулотларингиз учун вақт ажратинг.

Тарози (24.09 – 23.10). Бу даврда сизни бир қанча ижобий ўзгаришлар кутмоқда, бунинг учун шунчаки атрофингиздаги инсонларга эътиборли ва меҳрли бўлишингиз кифоя. Ҳафта бошида ташвиш ва юмушлар кўпаяди. Дам олиш кунлари режалаштирилмаган харажатлар бўлиши мумкин.

Чаён (24.10 – 22.11). Ҳафта давомида бутун куч ва шижоатни тўплаб, ўрнини босиб бўлмас ходим эканингизни ҳаммага исботланг. Касбий маҳоратингиз юксаклигига ҳеч ким шубҳа қилмасин. Сешанба янги шартнома ва битимлар тузиш учун омадли кун – сарфланган маблағ катта фойда келтиради.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Ҳаётда ҳамон ёлғиз бўлсангиз, бўлғуси тақдир йўлдошингиз билан учрашувга тайёр тулинг. Иш жойингизда фикр-мулоҳаза билдиришдан олдин, яхшилаб ўйлаб кўринг. Ҳар қандай нотўғри сўз келгусида сизга қарши ишлатилиши мумкин.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Ўтган ҳафта охирига етмай қолган ишлар бўлса, дарҳол уларни ҳал этинг. Илож борица низоли ҳолатлардан йироқ тулинг. Атрофдагиларга яхши кайфият улашинг. Оила аъзолар ва яқинларингизга эътиборли бўлишни унутманг.

Қовға (21.01 – 19.02). Душанба ва сешанба кунлари салбий фикр ва муносабат билдиришдан тийилинг. Акс ҳолда келишмовчиликлар кўнгилсиз оқибатлар олиб келиши мумкин. Лекин ҳафтанинг иккинчи ярми барча ишлар учун омадли бўлишни ваъда қилмоқда.

Балиқ (20.02 – 20.03). Бу давр, умуман олганда, омадли кечади. Ишбилармон кишиларини қизиқарли таклиф, ёлланма ишчиларни яхши мукофотли янги лойиҳа кутмоқда, ижодий шахслар ва эркин фаолият юритувчилар эса доимий ишга эга бўлишади. Дам олиш кунлари сизни ёқимли совға ва яқинлар билан учрашув кутмоқда.

■ Qoraqalog'iston Respublikasi

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mazkur ta'lim muassasida tajribali ustozlar va harbiy mutaxassislardan puxta bilim, tarbiya hamda zarur hayotiy ko'nikmalar oldim. Guruh komandirlari tomonidan olib borilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali harbiy intizom, jismoniy tayyorgarlik, mas'uliyat, jamoa bilan ishlash va yetakchilik qobiliyatlarini izchil rivojlantirishga muvaffaq bo'ldim. Natijada 2024-yilda IIVning Nukus shahridagi «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyiga o'qishga qabul qilindim. Hozirgi kunda ushbu dargohda tahsil olib, bilim va salohiyatini yanada oshirish bilan birga turli tanlov va olimpiadalarga faol ishtirok etib kelmoqdaman.

Xususan, «Temurbeklar maktabi»da o'tkazilgan fan olimpiadasining «Davlat va huquq asoslari» fanidan 1-o'rinni, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritdim. Bundan tashqari, o'tgan vaqt mobaynida bir nechta fanlar bo'yicha milliy sertifikatlariga ega bo'ldim.

Kelajakda O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasiga o'qishga kirishni niyat qilganman. Maqsadim – otamning izidan borib, yurtimiz tinchligi, elimiz osoyishtaligi hamda qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilish.

Diyorbek Nurillayev,
IIV Nukus «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik
litseyining 2-bosqich o'quvchisi.

■ Samarqand viloyati

Yurt taraqqiyoti, jamiyat ravnaqi va davlat kelajagi bilimli, ongli va fidoyi yoshlarga bog'liq. Ayniqsa, o'quvchilar ilmga chanqoq, yangilikka o'ch bo'lib oldiga aniq maqsadlar qo'ysa, kelajakda jamiyatga foyda keltiruvchilar ko'p bo'ladi. Albatta, buning uchun ular mehnatsevar, intizomli va maqsadi yo'lida har qanday qiyinchilikni yengib o'ta olishi kerak.

Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan lavhamiz qahramoni – IIV Samarqand akademik litseyi 2-bosqich o'quvchisi Soliha Mirzayeva umidli yoshlardan sanaladi. U ichki ishlar organlarida xizmat qilgan otasi – hozirgi kunda iste'fodagi mayor Abdulaziz Abilovni o'zining birinchi ustози deb biladi.

– Soliha jamoat ishlarida faol ishtirok etib, fan va sport muso-

baqalarida o'z iqtidorini namoyon etgan, litseyimiz faxri va otasining iftixoridir. U «Dzyudo» bo'yicha viloyat va O'zbekiston chempionatlari qatnashib, faxrli o'rinlarni egallagan. Shuningdek, tarix, o'zbek tili va adabiyot fanlaridan milliy sertifikatlarini qo'lga kiritgan. 2025-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti uchun o'tkazilgan tanlovning Samarqand shahar bosqichida Soliha Mirzayeva sport yo'nalishi bo'yicha faxrli 1-o'rinni egalladi, – deydi akademik litsey yoshlar yetakchisi Shodiyor Toshquvratov.

Ota ibratidan kuch olgan Soliha Mirzayevaning maqsadi kelajakda IIV Akademiyasiga o'qishga kirish. Bu yo'lida unga omad va muvaffaqiyat tilaymiz.

O'z muxbirimiz.



Gazetamizning
elektron variantini
ushbu QR-kod
orqali o'qishingiz
mumkin.

■ Surxondaryo viloyati

Bugun yoshlarimizda sportga qiziqish ortib borayotgani quvonarli hol. Ana shunday intilish va mehnat orqali yutuqlarga erishayotgan iqtidorli yoshlardan biri IIV Surxondaryo akademik litseyi o'quvchisi Biloliddin Ergashevdir. U besh yildan beri sportning aralash jang san'ati (MMA) turi bilan muntazam shug'ullanib keladi.

Biloliddinni sport to'garagiga ilk bor otasi olib borgani yosh sportchining hayotida burilish nuqtasi bo'ldi. Doimiylik va intizom talab qiluvchi mashaqqatli mashg'ulotlar davomida u nafaqat jismonan, balki ruhan ham chiniqdi. Sabr, iroda va o'z ustida ishlash kundalik odatiga aylandi. Bu o'z samarasini bermay qolmadi.

Dastlab u mamlakat chempionatida barcha raqiblarini mag'lub etib, sport jamoatchiligi e'tiboriga tushdi. 2023-yili Osiyo chempionatida kumush medalni qo'lga kiritishi esa xalqaro miqyosdagi ilk katta yutug'i bo'ldi. 2024-yilda ikkinchi bor mamlakat chempioni degan sharafl unvonga erishgan Biloliddin o'tgan yili O'zbekiston kubogida 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yosh sportchi uchun har bir g'alaba – yangi marra, har bir mag'lubiyat esa saboq.

– Sport meni intizomli qildi. Mashg'ulotlar menga qiyinchilikdan qo'rqmaslikni o'rgatdi, – deydi u. – Men tanlagan sport turi esa iroda va jasoratni talab qiladi. Otam «sport hayotda to'g'ri yo'l tanlashingga yordam beradi» deb aytgan. Shu gaplar meni ruhlantirgan.

Biloliddin Ergashevning sportdagi yo'li – bu faqat natijalar emas, balki iroda, sabr va to'g'ri tarbiya samarasining yorqin namunasidir.

O'z muxbirimiz.

■ Navoiy viloyati

Men 14 yoshdaman. Onam kapitan Gulsara Boboqulova Navoiy viloyati IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida inspektor-psixolog lavozimida faoliyat yuritadilar. Ularga havas qilaman. O'qishdan bo'sh paytlarim onajonimga uy-ro'zg'or ishlarida qarashaman.

O'zim Navoiy shahridagi 16-maktabning 7-sinfida o'qiyman. Matematika, tarix, huquq, kimyo va biologiya eng sevimli fanlarim. Har kuni bilimlarimni boyitish va savollarga javob topish menga katta quvonch bag'ishlaydi. Ustozlarim meni odobli, faol, mehnatsevar va intiluvchan o'quvchi deb maqtashganida quvonib ketaman.

Hali qaysi kasbni egallashim haqida aniq bir qarorga kelganim yo'q. Lekin onam singari insonlarga yordam bersam, Vatanimga, xalqimga foydam tegsa deyman. Onajonim akam, singlim va mening bilimli, o'zimiz tanlagan kasbning ustasi bo'lishimizni istaydilar. Kelajakda ularning ishonclarini oqlashga va'da beraman.

Gulsanam TO'XTASHEVA.



MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Adolat FAYZIYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 84.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
46430 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.